

RAXMONOV AZAMAT RUZVONOVICH

**TALABALARDA MILLIY IFTIXOR
TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAXMONOV AZAMAT RUZVONOVICH

**TALABALARDA MILLIY IFTIXOR
TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

-46#3/X-

Monografiya

Nukus
"ILMIY VA O'QUV ADABIYOTLAR NASHRIYOTI"
2023

UDK:378:371.
KBK:66.61+74
R30

Raxmonov A.R.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. - Nukus: "ILMIY VA O'QUV ADABIYOTLAR NASHRIYOTI", 2023. - 108 b.

Monografiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Monografiya keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.O. Ernazarova

Pedagogika fanlari doktori, professor

X.I. Ibragimov

Pedagogika fanlari doktori, professor

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti ilmiy-texnik kehgashining 2023-yil 29-noyabrdagi 19-sonli majlislida nashr etishga tavsiya etilgan

ISBN 978-9910-9577-5-8

© Raxmonov A.R., 2023.
© "ILMIY VA O'QUV ADABIYOTLAR HASHRIYOTI", 2023.

KIRISH

Jahon ta'lif amaliyotida siyosiy-iqtisodiy va mafkuraviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq ta'lif jarayonlarini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik paradigmalaridan foydalanish mexanizmlari amaliyotga joriy etilmoqda. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2015 yilda ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish maqsadlariga asosan milliy pedagogik qadriyatlarni demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, ta'lif mazmuniga vatanparvarlik va demokratik g'oyalarni singdirish, yoshlarda Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini shakllantirish, xalqning ma'naviy va intellektual merosidan foydalanishga doir amaliy loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jaxonning ko'plab ilmiy markazlari va institutlarida globallashuv jarayonini rivojlanish tendensiyasi nuqtai nazaridan tahsil qilish, milliy g'oya targ'ibot texnologiyalarining mohiyati va xususiyatlarini anglash, o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarning inqirozi, milliy ruhdagi g'oyalarning yemirilishiga sabab bo'luchchi omillar, mazkur jarayonni ilmiy asosda boshqarish mexanizmlari, yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda taraqqiyot falsafasining (development philosophy) zamonaviy paradigmalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda talabalarni ma'naviy-axloqiy, milliy iftixor g'oyalari ruhidagi tarbiyalash, yurtini sevuvchi Vatanparvarlik tuyg'ularini boy madaniy meros vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy- me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Zero, «...mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, halqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak»¹ligi Yangi O'zbekiston sharoitida

¹ Prezident Mirziyoyev Sh. Rafigida 2021 yil 19 yanvardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videooselektor yig'ilishi. // Xalq so'zi. 2021 yil 20 yanvar

amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor jihatlari sifatida qaralmoqda. Shu asosida talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari yanada kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr' PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oly ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 28 yanvar' PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyotstrategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlari tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son "Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 3 iyundagi 340-son "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'naliishi doirasida bajarilgan.

Sharq mutafakkirlarining milliy g'oya va ma'naviyat targ'iboti, Vatan va vatanparvarlik tuyg'usi borasidagi fikrlari, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mavzu borasidagi siyosiy qarashlari mazkur tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil qiladi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish, globallashuv sharoitida milliy g'oyaning namoyon bo'lish

xususiyatlari, uni yoshlar ongiga singdirish hamda mazkur jarayonni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish bilan bog'liq masalalar pedagog olimlar: E.G'oziyev, V.Karimova, M.Vohidov, S.R.Rajabov, I.Asqarova, A.Zunnunov, U.Mahkamov, S.Dolimov, K.Hoshimov, M.Ochilov, Q.Axmedov, M.Axmedova, S.X.Fayzulina, A.K.Minavarov, J.Xasanboyev, R.A.Mavlonov, O.Musurmanova, N.Shodiyev, N.Safarov, Yu.Axrarov, M.Isayeva, Sh.Diyarova, M.Akayeva, M.Mirqosimova, N.M.Egamberdiyev alarning; masalaning falsafiy aspektidagi talqinlari E.Yusupov, S.Otamurodov, N.Jurayev, K.Tulenova, J.Mavlonov, N.Shermuxamedova kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan P.I.Ivanov, G.Ganabolin, V.A.Krutetskiy, N.I.Obidov, A.A.Qurbanov, G.Axmedov, A.Gashimov, N.I.Boldirev, O.S.Bogdanova, ye.V.Bondarevskaya, N.K.Goncharov, A.E.Izmaylov, A.I.Kochetov, N.M.Kazimov, I.S.Mar'yenka, E.I.Monoszon, I.F.Harlakov, V.A.Suxomlinskiylarning tadqiqotlarida o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish, zamonaviy sharoitda ijtimoiy lashuv jarayonining o'rni va ahamiyati, tarbiya muammosini milliy aspektida o'rganishning pedagogik omillari o'rganilgan.

Xorijlik tadqiqotchilardan E.De Bono, Dj.Gilford, S.V.Gapius, G.D.Demos, V.A.Kan-Kalik, T.Lyubard, A.Maslou, A.Rou, A.Dj.Rou, R.Stenberg, ye.P.Torrans, E.From, X.G.Barnett, D.A.Xarvey, A.J.Brown, K.S.Findliy, L.Nefiodovlarning tadqiqotlarida tarbiyaning milliy va umuminsoniy omillari, o'zgaruvchan sharoitda tarbiya tamoyillarining namoyon bo'lish shakllari, globallashuv jarayonlari va innovatsion texnologiyalarning munosabati, milliy madaniyatlarning o'zgarish jarayonlari, neoliberalizmning namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlari, globallashuv sharoitida axloq va din munosabatlari keng yoritib berilgan.

Mazkur tadqiqot ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogik ta'lif innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari" (2017-2021 yy.) mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot ishlari rejasini doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotining milliy iftixor tuyg'usini rivojlanintirsining innovatsion mexanizmlari va targ'ibot texnologiyalariga asoslangan modeli shaxsiga tsir etish usullarini universallik, moslashevuchanlik darjasidagi talabalarining akademik saoliyatiga dilalektik yoshlarining milliy iftixor tuyg'usini rivojlanintirsining

asosida antiqlashchitrigan: paradigmalariga qadriyatlilik tamoyilli orqali implementatsiya qilish modelashchitrigan amaliy mexanizmlarini zamonaviy pedagogik pedagogik imkoniyatlar milliy g'oya targ'ibotining

ta labalardan milliy iftixor tuyg'usini rivojlanintirsining o'tamiz:

Tadqiqotning ilmiy yanqitigi sifatida quyidagi larni ketinib tadqiqot natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalantildi: pedagogik tajribaviy sinov, matematik statistik tahlili qilish, anket, test sorovlarini qiloshi va retrospektiv tahlili asosida o'tqazish, xorijiy tajribalarini qilishi, pedagogik kuzatish, tarixiylik, ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, normativ hujzatlar mekanizmlarini takomillashchitrishti.

Tadqiqotning usullari Tadqiqot jayroyonida ilmiy biliishning shakli, metod va vositalari tashkil etadi: rivojlanintirsing predemeti talabalarida milliy iftixor tuyg'usini

Tadqiqotidan 318 nafar talabalar ishetirok etdi. Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat belgilanib, tajriba-sinov ishlariida Farq'ona davlat universiteti, tuyg'usini rivojlanintirsing mexanizmlarini takomillashchitrishti jayroyon uchun tashkil etadi.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabarda milliy iftixor amaliy asoslarini antiqlashchitrishti.

Milliy iftixor tuyg'usini rivojlanintirsing mexanizmlarini amaliyotga tabbiy etish mexanizmlari ilmiy metodikasi, nazary va takomillashchitrishti;

milliy iftixor tuyg'usini rivojlanintirsining hamkorlikka asoslangan mexanizmlaridan soydalanish metodikasi

funksional modelini takomillashchitrishti;

Tadqiqotning vazifalardan amaliya osirishda asosan, pedagogik imkoniyatlarini antiqlashchitrishti;

Tadqiqotning vazifalardan amaliya osirishda asosan,

revoljantirish, bu borada ta lim siyosatini to'g'ri amaliga osishish, qolqalashuv sharoitiда talabalarida milliy iftixor tuyg'usini natijalarining ilmiy ahamiyati unda iltigar surʼigʻan g'oyalaridan Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyat. Tadqiqot

tasdiqlanganligi bilan izozlanadi.

foriy etlibantigi hamda va kolatlari tasbihotlar tomonidan vostasida antialqanganligi, xulosat, takif va tavsiyalarning amaliyotiga turba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar multumotlarining rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik

da valalar olimlarining ishlariqa asoslanganligi, nazarli

usullarining ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, bishish nazaryasi Tadqiqot natijalarining ishonchchiligi o'llanigan yondashuv, shahmalariyaratilgan.

ilmuniy pedagogika" fantdan interfaol amaliy maslahug'utot talabalarini milliy iftixor g'oyalarini ruhiida tarbiyalashga dor mekanizmlarini takomillashchitrishti.

shahmalariyaratilgan mekanizmlarini takomillashchitrishti.

ta labalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanintirsing

shahab chiqilg'an;

Tadqiqotning amaliy natijalar siyatlida: talabarda milliy rivojlanintirsing mekanizmlarini takomillashchitrishti bo'yicha metodik tavsiyalara tizimi

ta labalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanintirsing

shahab chiqilg'an;

Tadqiqotning amaliy natijalar siyatlida: talabarda milliy rivojlanintirsing mekanizmlarini takomillashchitrishti.

ta labalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanintirsining

shahab chiqilg'an;

ta labalarda kritish asosida konseptual metodologik jixatdan

ma'naviy-marifiy ishlar samaradorligini ta'minlash sohasida o'tkaziladigan tadqiqotlar hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga doir ilgari surilgan ilmiy-metodik tavsiyalar, nazariy xulosa va takliflar, milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mexanizmlaridan oliy ta'lim muassasalarida umumiyligida fanlarini o'qitishda foydalanish, oliygochlarda o'qitiladigan gumanitar fanlar bo'yicha yaratilgan darslik va o'quv-qo'llanmalar mazmunini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

milliy g'oya targ'ibotining modellashtirilgan amaliy mexanizmlarini zamonaviy pedagogik paradigmalarga qadriyatlilik tamoyili orqali implementatsiya qilish asosida aniqlashtirilgan. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, muammoning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari, milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning ilmiy va amaliy ahamiyati borasidagi taklif va tavsiyalar Toshent davlat pedagogika unversitetida bajarilgan KA-1-003 raqamli "Yoshlarda vatanparvarlik dunyoqarashini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik texnologiyalarini yagona tizimini ishlab chiqish" nomli amaliy loyiha mazmuniga singdirilgan (Toshent davlat pedagogika unversitetining 2022 yil 21 yanvardagi 02-07-3842/04-soni ma'lumotnomasi). Natijada, pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish tamoyillarining pedagogik imkoniyatlari kengaytirilgan;

shaxga ta'sir etish usullarini universallik, moslashuvchanlik darajalarida talabalarining akademik faoliyatga dialektik aloqadorlikda kiritish asosida konseptual-metodologik jixatdan takomillashtirilgan yoshlarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning innovatsiyon mexanizmlari va targ'ibot texnologiyalariga asoslangan modeli, geosiyosiy maydonda axborotlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatuvchi muammoli ish

turlarini shaxsga yo'naltirilgan o'quv muhitida tarbiyaviy-axloqiy ta'sir ustuvorligiga ko'ra metodik jixatdan tizimli qo'llash asosida takomillashtirilgan. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usining rivojlanganligini baholash mezonlariga oid takliflardan Toshkent davlat pedagogika universitetining 1t3-2017927124-raqamli "Talim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik fuoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 21 yanvardagi 02-07-3842/04-soni ma'lumotnomasi). Natijada, sub'ektiv-axloqiy yondashuv asosida talabalarining milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari va o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishga erishilgan;

yoshlarning individual ta'lim makonini milliy g'oyani o'qitishning kognitiv, shaxsiy, madaniy, kompetentlik kabi zamonaviy tamoyillari bilan intensiv ta'sirchanlik xususiyatlarni inobatga olgan holda integratsiyalash asosida takomillashtirilgan milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mexanizmlaridan foydalanish metodikasi, yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish modeli, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash, xulq-atvorning strukturali komponentlarini jamliyatning ijtimoiy pedagogik muammolariga faol munosabatini ta'minlashga refleksiv-ongli munosabatni shakllantirish bo'yicha ilmiy xulosalardan Toshkent davlat pedagogika universitetining KA-01-003 raqamli "Yoshlarda vatanparvarlik dunyoqarashini shakllantirishning ilmiy-pedagogik texnologiyalarining yagona tizimini ishlab chiqish" nomli fundamental loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 21 yanvardagi 02-07-3842/04-soni ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning amaliy mexanizmlari takomillashtirilgan.

I BOB.TALABALARDA MILLIYIFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHning NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1-§. Talabalarda milliyiftixor tuyg'usini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida

Keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab bergenligi bilan xarakterlanadi. Bu davr jamiyatimiz hayotidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar davri sifatida tarixda qoladi. Odatta, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z borganda, davlatimiz rahbarining "Biz hali izlanishdamiz, o'rganishdamiz", deb aytgan so'zlari yodga tushadi [1]. Bu esa oldimizda bir-biridan muhim va dolzarb vazifalar turganini anglatadi. Chindan ham, hozirgi vaqtida yurtimizda mamlakat yetakchisidan tortib barcha bo'g'indagi rahbarlar yangicha sharoit, yangicha muhitda ishlashga, izlanib, o'rganib, xalq bilan muntazam muloqot asosida faoliyat yuritishga intilmoqda. Shu ma'noda, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekistonda yangi, demokratik islohotlarni boshlashda eng maqbul yo'l tanlandi va u hayotda qisqa muddatda o'zini to'la oqladi, deb aytishga bugun barcha asoslar bor.

Talabalarda milliyiftixor tuyg'usini pedagogik jihatdan shakllantirish ularda Vatanparvarlikni, yurt tinchligi va xalqning osoyishtaligini ta'minlashga undaydi. Talabalarda o'zi yashayotgan davlatning tinchligi hamda xavfsizligini barqarorligini ta'minlashda jonbozlik ko'rsatish milliyiftixor tuyg'usini amaliy ifodasi sifatida ko'rindi. Turli millat va elatga tegishli fuqarolarni o'rtasida inoqlikni yuzaga kelishida hissa qoshishi millat orasida o'zining qadr-qimmatini anglashini ta'minlaydi. Talabalarda milliyiftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda "rivojlanish", "tarbiyalash", "shakllantirish", "omil", [120] "pedagogik ta'sir", "milliy g'urur", "milliyiftixor" va [124] "milliy o'zlikni anglash" kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon boladi. Tadqiqot muamosini ijobiyl hal etishda tushunchalarning mazmunini to'laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Ko'pincha tegishli pedagogik adabiyotlarda "shakllanish", "rivojlanish", "tarbiyalash", ba'zi manbalarda keltirilishicha "ijtimoiy lashuv" iboralarining alohida mantiqqa mosligi ta'kidlanadi. "Shakllantirish" va "rivojlantirish" iboralarining o'zaro bir-birining to'ldiruvchi iboralar ekanligi yuzasidan talqinlar ham mavjud. Ularga ko'ra, shakllantirish jarayoni rivojlantirish va rivojlantirish jarayoni esa shakllantirish asosida sodir bo'lishi tushunchasi ilgari suriladi.

Shaxs tarbiyasini amalga oshirish tarbiyani har tomonlama puxta tashkil etish bilan, shaxsda ma'naviy-axloqiy, irodaviy va insoniy sifatlarni barqaror yo'lga qo'yadi. Tarbiya o'z navbatida ijtimoiy faoliyatda umumiy va muhim kategoriya sanaladi. Shuningdek u ijtimoiy hodisa zamirida bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, ajdodlar merosi asosida yig'ilgan tajribalarni yosh avlodga yetkazish va mavjud bilimlarni egallash, insonni sog'lom rivojlanishi, ongni yetuk jixtdan taraqqiy etishi kabi mazmunni o'zida aks ettiradi.

I.S.Maren'ko shaxsning tarbiyalanganlik darajasi turli faoliyat va fe'l-atvor mazmunida namoyon bo'ladigan o'qishga, mehnatga, kishilarga, atrof-muhitga munosabati orqali belgilanishiga urg'u beradi. [3] N.I.Boldirevning fikricha, shaxsning tarbiyalanganlik darajasi barqaror xulq-atvor ko'nikmasida, o'quvchining xattiharakati, muomalasi va ularning nuqtai nazarida vujudga keladi. Mazkur daraja shaxsning fe'l-atvorida sodir bo'lgan ma'lum sifat o'zgarishi bilan belgilanadi. Shaxsda ma'lum sifatlarning tarbiyalanganlik darajasini quyidagi shartlar asosida aniqlash

maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlovchi yondashuvlar ham mavjud:

- shaxsning alohida sifatlarini ajratib ko'rsatish, ularni namoyish etish (N.I.Monaxov, M.I.Shilova);[5]
- shaxs tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat yo'nalishlari (L.I.Bojovich, A.V.Zasimovskiy);[6]
- shaxs faoliyati jarayonining mohiyatini o'rganish (O.S.Bogdanov, V.P.Petrova);[7]
- yaxlit jarayon, kundalik yoki yakuniy natijalarning ko'rsatkichlari (O.Musurmonova).[162]

"Rivojlanish" iborasining sof biologik, "tarbiyalash" iborasining [123] pedagogik, "shakllanish" iborasining esa falsafiy[123] kategoriyasini o'z o'rnda taxlil etadigan bo'lsak, shundan anglash mumkin, shaxs rivojlanishi shakllanishdan o'laroq (soddaroq so'zlar talqinida shaxsning muayyan xulq-atvoriga qaratilgan ko'nikmalarini rivojlanirish) mohiyatida vujudga keluvchi ijtimoiy jaraayondir. Ammo, "shakllanish" iborasi kishi ongini taraqqiy etishi va uning vujudga kelishini anglashi uchun asosiy tushunchadir. Bu esa aniqlangan ma'lumotlarda, shaxs ichki dunyosini tarkib toptirish hodisasi, unda irodaviy hamda ma'naviy xulq-atvorning mavjudligi va yaxlitligiga tayanib hosil qilinadi.

Pedagogika nazariyasi va amaliyoti fani doirasida esa "shakllanish" tushunchasi asosan tarbiyaviy jarayon hamda ayrim o'rnlarda ijtimoiy munosabatlardan mohiyatini ochib berishda qo'llaniladi.[175] Masalan, "shaxsning shakllanishi uning insonlarga, o'ziga, o'z kelajagiga va boshqalarga nisbatan ijtimoiy munosabatlarda shaxsning qiyofasini belgilab beruvchi xulqi va harakatlaridagi o'ziga xoslikni aks ettiruvchi murakkab hodisadir" (P.M.Yakobson).[33]

"Ijtimoiylashuv" esa shaxs shakllanganlik darajasining yuqori bosqichi hisoblanadi. J.Piajening ta'rifiga ko'ra, ijtimoiylashuv bu ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoni bo'lib, u individning muayyan rivojlanish darajasiga erishib, boshqa insonlar bilan hamkorlik qilish layoqtiga ega bo'lishini anglatadi. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonining mohiyatini o'rganishda M.I.Rojkovning quyidagi konsepsiysi alohida ahamiyatga egadir:

ijtimoiy tarkib topishda ijtimoiy amaliyot, ya'ni individning ijtimoiy munosabatlarning turli sohalariga amaliy kirishishi muhim o'r'in tutadi.[10]

Yuqoridaagi fikrlarga asoslanib qayd etish mumkin talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish davomiyligi tizimli hamda izchil pedagogik yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayon barkamol avlodni yetuk shaxs sifatida tayyorlash birga malakali mutaxassis etib tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotni o'rganish uchun "omil" iborasining mazmunini tushunish qatorida faoliyatni samrali tashkillashtirish muhim belgilanib, kerakli omillarni qayd etish lozim. Ammo ta'lismohasining keyingi vazifasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish uchun o'zaro hamkorlikni amalga oshirish klaster imkoniyatlarini omillar zamirida ochib beradi.

Pedagogik tadqiqotlarda ushu tushuncha muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi "shart" (T.V.Frolova), "holat" (P.I.Djanelidze), shuningdek, "sabab" (D.M.Grishin) kabi talqin etilgan.[11] Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar asosan tarbiyani tashkil etish, unda ma'naviy sifatlarni tarbiyalash, ularni takomillashtirish, tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan va eng asosiy muammolar ilmiy ibora sifatida qaralayotgan omillar "ichki va tashqi omillar" tarzida tizimlashtirilgan.[122] Ayrim tadqiqotlarda ma'lum faoliyat yoki jarayonning samarali bo'lishini ta'minlovchi omillarning ob'yektiv va sub'yektiv xususiyatlarga ega bo'lishi ta'kidlanadi. Quyida keltirilgan fikrlarga tayanib ilmiy muammo zamirida tadqiq etilgan tajriba-sinov davomida ko'zga tashlangan holatlar, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda innovatsyon ta'lim klasteri mexanizmidan foydalanan ustuvor sub'ektiv omillar sifatida (jarayon 1.1-rasmga sxema shaklida) kiritildi.

1. Sub'yektiv omillarning tarkibiy tuzilmasi sifatida:


[120] jamiyatning sog'lom muhitda qaror topganligi, shaxs o'zligini tushunishga yordam beruvchi g'oyalarning yetakchi o'rintutishi; shaxs munosabatlarining yangicha mazmun ifodalishi; milliy qadriyatlarning yangilanishi,[122] bilimlarni oshirish bo'yicha muayyan faoliyat tashkil qilish; milliy hamda

umumbashariy qadriyatlar uzbekligiga erishsiz; ijtimoiy jarayonlarda inson omilini erkin faoliyatini kuzatilishi; talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish imkoniyatlarida oila, ta'lif muassasalari va mahalliy jamotachilik harakataini keng imkoniyatlarini yaratish; Shaxs dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlarini rolini oshirish; ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tashkil etisha va boshqaruvini muqobillashtirish; talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda pedagogik ta'lif innovatsiyon klasteri modelidan foydalanish, notiqlikni, kreativlikni, hayotiy tajribalarga tayanish va ularning imkoniyatidan o'rinci foydalanish; talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish asosida klaster modeling imkoniyatlarini yaratilganligi va boshqa shu kabilalar.

II. Ob'yektiv omillarning tarkibiy tuzilmasi : oliyohlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifatini yuksalishida imkon beruvchi ilm-fan texnologiya yutuqlariga asoslangan moddiy-texnika bazasini takomillashtirish; pedagogik tushunchalar singdirilgan o'quv adabiyotlari(o'quv qo'llanma, o'quv dasturi, o'quv darsliklar, didaktik hamda demonstratsyon materiallar)ning ishlab chiqilganligi; talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanishning axborotli texnologiyalari(ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televide niye va komp'yuter)ning xizmatini yaratilgani va shu kabilardir.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish davomida klaster mexanizmining qo'llash ular o'tasida ijtimoiy muhitni roli muhim ahamiyatga ega. Ammo talabalarning jamoat tuzilmasida shakllanishida milliy iftixor tuyg'usini qaror toptirish davomida ijijtimoiy ta'sir yetakchi hisoblandiZero, talabalarning umumiyligi shakllanishiga ta'sir etgani kabi ularda milliy iftixor tuyg'usining qaror topishida ijtimoiy ta'sirlar yetakchi hisoblanadi.

Shuningdek quyidagi keltirilgan omillar zamirida, **birinchidan**, sog'lom muhitning qaror topganligiga asos sifatida talabining alohida ko'rsatilganligi bejiz emas. Binobarin, talabalar kichik va keng imkoniyatlari muhitda jamoaviy zarur vazifalarini bajarishga jalg etiladi.



1.1-пачм. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish omillari

Ikkinchidan, ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga qaratilgan bilimlarni olishlari, ijodkorlik va tashabus ko'rsatishga, ma'naviy yetuklikka chorlovchi yo'l ochiladi; **uchinchidan**, mustaqil hayotga kirishishda milliy iftixor tuyg'usini imkoniyatlari ma'lum tajribalarni boyitadi va ma'naviy o'zlikni rivojlantiradi".

O'zbekistonda shaxsni yetukligiga tobora e'tibor qaratilmoqda va uning xaq-xuquqlari qonuniy asosda ishlab chiqildi. Lekin pedagogika fanining tushunchalaridan ma'lumki talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish uchun alohida ta'sirli muhit mavjud bo'lib, hozirda uni g'oyaviy jixatdan takomillashtirishga zarurat kuzatilmoqda. Bu muhit talabalar mansub bo'lgan mikromuhitdir. Mikromuhit umumiyligi muhitning tarkibiy tuzilmasida namoyon bo'lsada, o'ziga xos jihatlari bilan ham tavsiflanadi. Chunonchi, N.Hakimovning qayd etishicha: "Mikromuhit umumiyligi sotsial muhitning bir qismi hamda umumiyligi, yakka-yolg'iz tomonidan birligi, shaxs hayoti va amaliy faoliyatida bevosita ta'sirga kirishishda moddiy, ijtimoiy-siyosiy mafkuraviy omillarning umumlash masi hisoblanib, shaxs betakrorligida, ichki dunyosini chiroyliligidagi rivojlantirish omillari va shartlarini o'z ichiga oladi".[12]

Yana shuni qayd etadigan bo'lsak, makro muhitning ahamiyati, unda qaror topayotgan o'zaro ijtimoiy faoliyatlar mazmunida meyoriy hudjatlarni asoslanishi ommanning bu yuzasidan bergen ma'lumotlariga tayanadi. Unda omma tushunchalarini hisobga olish, xohish-istiklarni omma tomonidan kelishilganligi, ommaviy axborot vositalari, gazeta, jurnal, rtele-radio namoishlarida o'znatijasiga ega bo'ladi.

Odatda keng muhitda kichik tarmoqlarda ustun hisoblangan iboralar talaba shaxsini rivojlanishidagi ta'siri uchun ma'lumotlar oddiy kechmaydi. Ayanchli tomoni shundaki ko'p kuzatilgan holatlarda hayotni yengil-yelpi tushunchalarda anglash, mikromuhitning oson yo'llarda moddiy sharoitlarini egallash singari g'oayalari pedagogik-psixologik, falsafiy jixatdan olib borgan tajriba-sinovlarda asoslanmoqda.

O'liy o'quv yurtlari talabalarida milliy iftixor tuyg'usining rivojlantirish jarayonida tushunchaning mohiyatini tushunish talab qilinadi. Shu sababli [123] manbalarda yoritish holatini tahlil

qilish asosida[123] talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanish darajasini aniqlashga yordam beruvchi mezonnarni ishlab chiqishga urinib ko'ramiz. A.Ibrohimov, X.Sultonov va N.Jo'rayevlarning fikrlariga ko'ra, "shaxs g'ururi - bu faxr", "milliy g'urur - bu iftixor" bo'lib, ular garchi bir-birlariga yaqin ma'nolarni anglatsada, bir vaqtning o'zida bir-biridan ma'lum darajada farqlanuvchi tushunchalar ekanligi ta'kidlanadi.[12]

Bu o'rinda mualliflar quyidagi fikrnı ilgari suradilar: "Milliy iftixor millat o'zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqr o'rinishi".[13]

"Milliy iftixor tuyg'usi o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyatini beradi. Milliy iftixor tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg'usi - o'zligini anglash va o'zgalarni tushunishga da'vat etuvchi qudratli kuch".[14]

Ma'lumotlarda aniqlanishicha mualliflar g'urur iborasini shaxsga, iftixor iborasini esa milliy o'zlikni tushunishga xos tuyg'u sifatida qayd etadilar. Asl holatlar o'rtasidagi o'zgarishlarni ko'rsatuvchi ma'lumot sifatida qabul qilinadi. Har ikkala tushunchaga berilgan ta'rif bo'yicha g'urur iborasi individual xolatlarda, iftixor iborasi esa ijtimoiy jaroyonni aks etadi, degan fikr paydo bo'ladi.

"Milliy g'urur (iftixor) - shaxsning ijtimoiy tuzilmalarda o'zlikni anglashdagi xarakatlari ajdodlar qoldirgan madaniy va moddiy merosga, sivilizatsiyaga qo'shgan hissasi, boshqa millat xalqi oldida qadrlanish, obro'ni oshishida faxrlanish tuyg'usini ifodalovchi tushuncha", deb ta'rif beriladi manbalarda.[15] Mazkur tuyg'uni shaxsning ma'lum xulq-atvorida ko'rish mumkin: milliy yutuqlarni qo'lga kiritish, obro'dan g'ururlanish, kishilar muammolariga e'tiborsiz qaramaslik; el-yurt va millatning kelajagi uchunfidoiylik; millatning moddiy-ma'naviy me'rosini qadrlash; xalqning urf-odatlarini, marosimlarini hurmat qilish,

moddiy va madaniy boyitish yuzasidan qayg'urish; mehrmuhabbatni kishilar oldida namoyon qilishdir.


Milliy iftixor o'zi mansub bo'lgan millatga hos o'zini tustishi, kishilik ravnaqi, yuksalish bilan kurashib emas, boshqa millatga mansub kishilarni hurmat-ehtiromini joyiga qo'yishni ham talab etadi. Bunday hisga ega ma'naviyatlari kishi milliylikni anglay olishi, haqiqiy milliy iftixorni millat ajratishdan farqlay oladi. O'zga millatlarni nafsoniyati va hurmatini pastga urmaydi. Shuningdek, milliy iftixor tuyg'usini egallagan insonda milliy o'zlikni tushunish his-tuyg'usi shakllanib boradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limgizni rivojlantirish va pedagogik faoliyatini takomillashtirish, ta'limgiz tizimining mazmunini yangilash, o'quv-tarbiya ishlarining sifatini oshirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar bajarildi. Masalan, G.I.Maxmudovaning tadqiqoti oliy pedagogik ta'limgiz tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda talabalar ma'naviy shakllantirishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar, pedagogik turkum fanlarini o'qitish jarayonida talabalar ma'naviyatini shakllantirish imkoniyatlari, ma'naviy shakllantirish tizimi, mexanizmi, shakl, metod, vositalari to'g'risida ta'kidlanadi.

Ish jarayonida talabalarni pedagogika fanining tushunchalari asosida ma'naviyatini shakllantirish quydagi larga asoslanildi: Vatanga fidoiylik yo'lida mehnat qilishdek insoniy burchni faxmlash, vatanparvarlik his tuyg'usiga ega bo'lish; yurt osoyishtaligi, Yurt xurligi va xalq erkinligi yo'lida hizmat qilish; yetuk insoniy fazilatlarni egallah, ijtimoiy faoliyotni mazmun-mohiyatini anglash va mos xatti-harakatni bajarish; baynalminnal tuyg'uni egallah, o'zga xalqlarni xaq-xuquqlarini hurmat qilish; kishilarni vijdon erkinligiga nisbatan hurmat ko'rsatishlarini ta'minlash; komillik fazilatlari (intelektuallik, insoniylik, bag'rikenglik, odob-axloqda namunalilik, mehnatsevarlik va h.k.)ni namoish etish.

Z.Qurbaniyazova milliy faxrlanishda o'zlikni bilish tuyg'usiga egalik millatchilik emasligini ta'kidlaydi: "Milliylikni anglash – bu millat ajratish emas, o'z millatiga sodiqlik, urf odatlariga va xalqiga,

tug'ilgan joyiga, diniga, vataniga, tiliga, ajdodlariga, oilasiga nisbatan iftixor hamda boshqa millat kishilariga ham izzat-hurmat qilishdir".[117]



1.2-rasm. Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanish imkoniyati

Mustaqillikni qo'lga kiritganimizga ko'p vaqt o'tmasdan shaxs milliy iftixorini rivojlantirish, xalqning, Vatanning, ajdodlarning oldidagi mas'uliyatni his qilishdek mazmunda boyitmoqdalar. Bu sharoitda milliylikdan, xalqining mustaqilligidan faxrlanish, jamiyatda hurlikka, farovonlikka va erkin hayotga havas uyg'otishda mehnatning ahamiyatini oshirish, turli hamkor jamiyatlar tomonidan fan va texnologiya yutuqlaridan, ilg'or zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asosida milliy iftixor tuyg'usini [197]rivojlantirish maqsadida klaster modelidan foydalanish samaraliroq kechadi.

O'z o'rniда o'sib kelayotgan yosh avlodning azmishtijoatini, salohiyatini, buniyodkorlikka hos faoliyatni belgilaydi, ularni sog'lom muhitidan baxra olishlari milliy faxrlanishga, milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga safarbar etadi. Mazkur faoliyatlar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodda milliy iftixorni

barqarorlashtirish oliy o'quv yurtlari uchun katta mas'uliyatni talab etadi. Lekin hozirgi vaqtida mazkur joylarda xalqimizning o'tmishi, ajdodlarning yuksak madaniy merosi, bugungi taraqqiy faoliyati keng imkoniyatlarda pedagogik tomondan o'rgatilmoqda. O'z o'rnida ta'larning zamonoaviy imkoniyatlari oshib bormoqda. Tarixdan ma'lumki, milliy faxrlanish tuyg'usi milliylikni chuqur anglash hamda e'zozlashga ma'naviy qiyofadan kelib chiqqan ehtiyojidir.[125] Milliy iftixor va milliy taraqqiyot yo'llidagi harakatlar,[123] millat istiqboli oldida mas'ullik[123] beqiyos namuna sifatida baholanadi. Har bir kishi o'z millatini tarixini bilishi, qadrlashi, milliy taraqqiyot sari intilishi va milliy iftixorni o'zida mujassamlashtirishi zarur. Quyidagilar asosida yana shuni alohida qayd etish lozim, boshqa millatlarning, urf-odatlari, turmush tarzi va madaniyatiga nisbatan yuksak extiromni amalga oshirish muhim hisoblanadi.[123]

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanish orqali kelajakni, ertangi kunga ishonch[123] hissini singdirish, bir tomonidan, barpo etilgan madaniyatdan[123] g'ururlanish, ikkinchi tomonidan, asrab-avaylash uchun mehnat qilish g'oyalarini takomillashtirishdan iborat. (1.2-rasm).

O'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmi yigirmanchi asr boshlarida yashagan allomalar:[123] M.Behbudiy, M.Abdirashidxonov, A.Fitrat, A.Avloniy, Cho'pon, A.Qodiriy, U.Nosir, A.Shakuriylar o'z ijodida bolalar tarbiyasi, yoshlarda vatanparvarlik, milliy faxr tuyg'usini rivojlantirishga alohida to'xtalganlar.

O'zbek xalqining atoqli namoyondalari hisoblangan mutafakkirlarimiz o'zida milliy iftixor tuyg'usinikeng yoya olgan.Ulardan, M.Behbudiyning so'zlarida milliylikdan g'ururlanish, milliy faxrlanish tuyg'usida[123] yaqqol kuzatiladi: "Biz o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbanlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz ... mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq baxt-

saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo'ladi "[18]"

Munavvarqori Abdurashidxonov bola tarbiyasida Vatanparvarlik va mehr-muhabbatlilik, sadoqatlilik, xalollik, odamiylik kabi sifatlarni o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan. Muallifning talqinida Vatanga sadoqqat, hurlikni, tinch zamonnini qadrlashga va gullab yashnashi uqtiradi. Shuningdek olim bolalalar shuriga Vatan timsolini kiritish qatorida Vatan oldidagi burchni bebaho hisoblashi uning oldidagi xizmatini ado etishni, o'z farzandlaridan Vatan najot istashini ta'kidlaydi.

N.Jo'rayev o'zining "Uyg'oq nigoh" kitobida istiqlol davri muammolari, demokratiyaning ma'naviy-axloqiy mazmuni, hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishini atroflicha tahlil qilgan. Asarda istiqlolning buyuk mohiyati, o'zlikni anglash-olamni anglash ekanligi, ruhiy-ma'naviy yangilanishlar, iqtisodiy-huquqiy islohotlar haqida fikr bayon etilgan.

E.Yusupov o'zining Inson kamolotini qadrlashga oid asarida ma'naviyat xaqida va inson ma'naviyatini shakllantirish, shaxs ma'naviy kamolotini rivojida alohida o'rin tutuvchi zarur omilarni sanab o'tgan, ma'naviy yuksaklikka erishishning ijtimoiy-axloqiy jixati, shu singari, shaxs komilligining psixologik jixatiga tayangan holda uning ma'naviyatini shakllantirish shartlarini o'z qarashlarida e'tirof etган.

Asarda vatanparvarlik ma'naviyati insonga xos bo'lgan yuksak fazilat ekanligiga alohida urg'u beriladi. Shuningdek, "vatanparvarlik" tushunchasi sharhanadi. Muallifning fikricha, "vatanparvarlik - o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilaridagi vatanparvarlik tuyg'usining shakllanganlik darajasi bilan bog'liqdir".[151]

J.Tulenov, K.Yusupov, Z.G'afurovlarning "Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va imkoniyatlaririri" nomli risolasida o'zbek xalqining milliyligining mohiyatini, siyosiy darajaga qo'yish va iqtisodiy sohaga tegishli vazifalar yuzasidan o'z fikrini bayon etgan. Olimlarning mustaqillik

xaqidagi ilmiy mulohazalarini yangicha fikrlashda inson omilini yuksak qo'yish, Vatanparvarlik hissini shakllantirish xaqida aytib o'tganlar. O'z risolalarida milliy mafkura yordamida milliy ong shakllanishi, kishilik madaniyatining tarkib topishi xalqning boy tajribasiga asoslanishi faxrlanish tuyg'usi bian ifodalangan.

B.Ziyomuhamedov, S.Ziyamuhamedova, S.Qodirovalar tomonidan yaratilgan "Ma'naviyat asoslari" darsligida mualliflar o'z oldilariga talabalar ma'naviyatini tarkib toptirishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish vazifasini ta'kidlaganlar.[124] Ma'naviyatimizning qadriyatlar birga takomillashuvida ishtirok etgan ajdodlarimiz va qardoshlarimiz jaxonga ma'naviyatli yoshlarni tanitishga yo'l ochib bergenlar. Har tomonlama barkamol va ma'naviyatli yoshlarni komillik darajasiga yetishlarini maqsad etganlar.

Shunga ko'ra, darslik mazmunida ma'naviy komillik mohiyati, ma'naviy azaliy meros, O'rta osiyo ijtimoiy-falsafiy fikrlarni taraqqiyotining ma'naviyat masalalari, O'rta osiyo xalqlarining azaliy ma'naviyati, islam madaniyati, tasavvuf va uning o'tmishi,[124] O'rta osiyo xalqlarining IX-XX asarlardagi ma'naviyati, o'zbek xalqining XV-XX asrlardagi ma'naviyati, ma'naviy barkamol inson, axloq va odob ma'naviyati va ma'rifat masalalari bayon qilib berilgan.

I.Suvonqulovning "Ma'naviyat ildizlari" nomli qo'llanmasida o'zbek milliy madaniyati qadriyatları hamda ma'naviy-ma'rifiy boyliklari haqida fikr yuritiladi. Qo'llanmada muallif umrboqiy an'analar xususida so'zlar ekan, bu an'analarni Ergash Jumanbulbul o'g'li va uning nabira, evaralarining xalq og'zaki ijodini rivojlantirishga qo'shgan hissalarini bayon etiladi. U "Alpomish va Barchinoy" dostonida 16 bo'g'in qo'ng'irot urug' boshliqlari aka-uka Boybo'ri va Boysarilarning befarzandligi, nihoyat Boybo'rining Hakimbek (Alpomish) va Qaldirg'och nomli o'g'il, Boysari Barchinoy ismli qiz ko'rgani va Barchinoyni Alpomishga unashirilishi, Boybo'rining Boysaridan zakot so'ragani, shu munosabat oralarida bo'lib o'tgan voqealarni bayon etadi. Qo'llanmada Amir Temur va uning ajdodlari yaratgan va kelgusi

aylodlarga qolgan o'limas qadriyatları misollarda ko'rsatiladi[145].

Tarixdan ma'lumki, temuriyzodalar tarbiyasi Bibixonim bilan bog'liq. Bibixonim Shohruh Mirzo, Ulug'bek, Muhammad Sultan, Halil Sultanlarning ilm-ma'rifat hamda milliy iftixor hissini egallahlarida rahnamolik qilgan.

O'zbek xalqining buyuk farzandi, iftixori Zahreddin Muhammad Bobur boburiylar hukmronlik qilgan yillarda Hindistonning Dehli, Agra, Panjob, Olloqobod, Lohur, Kashmir, Haydarobod kabi viloyatlarda jahonga mashhur tarixiy obidalar, bog'-rog'lar bunyod etgan. Muallif qo'llanmada batafsil ma'lumot berib, buyuk allomalar Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bekning ilm-fan, adabiyot, bunyodkorlik sohasida qilgan ishlarni faxr bilan bayon qiladi. U Sufi Olloyorning ijodi, hadis ilmining mohiyati haqida ko'tarinki ruhda fikr yuritadi. Muhim, muallif qo'llanmada aks ettirgan milliy qadriyatlar va iftixor tuyg'usi faqat O'zbekiston mustaqilligi yillaridagina tiklanganligini ko'rsatib, bu ne'matdan bahramand bo'layotganligidan faxrlanadi. Quyida o'rganib chiqlilgan ma'lumotlarda shular aniqlandiki talaba va o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanishning mazmuni, metodlari, shakl-shamoyillarini batafsil yoritib bergen tadqiqotlar olib borilmagan. Tadqiqotning ba'zi jixatlari adabiyotlarda talqin qilinib, talabalarning milliy iftixor tuyg'ularini rivojlantirishning pedagogik negizini tashkil etib o'z muammolarini kutayotgan muhim masalalardan biri sifatida qarash mumkin. Tadqiqotimiz davomida, "g'urur" va «iftixor» iboralari o'rganib borilayotgan ob'yektivlik nazaridan ham alohida, ham ijtimoiy xususiyatni bildiradi. Ammo shaxs faxrlanishi-muayyan psixologik xususiyat hisoblanib uning ijtimoiy faoliyatlardagi rolini shaxsiy sifatlarda aks etishi, erishilgan yutuq hisoblanadi. Milliy tuyg'uga ega bo'lish, millatga tegishli insonni jaxonda o'z o'rnnini shaxs taraqqiyoti va rivoji uchun qo'shgan hissasini shaxsni o'z millatini jahon hamjamiyatidagi o'rnnini, mavqeini, insoniyat taraqqiyotini va rivojlanshiga qo'shgan hizmati demakdir.[144]

Milliy iftixor-ma'lum millatga tegishlilik jahon rivojiga qo'shgan xizmatidan g'ururlanish, o'z yurtiga sadoqatini amaliy faoliyatlarda ko'rsatish hisoblanadi. Milliy iftixor tuyg'usi zamirida qanday fazilatlar namoish etiladi? Tadqiqot jarayonida mazkur savollarga javob topishga harakat qilindi.



1.3-rasm. Milliy iftixor tuyg'usini tarkibiy asoslari

Umumum ta'lim maktablarida o'quvchilarni ongiga va shuriga milliylikni singdirish yuzasidan ilmiy izlanishlar bajargan Z.Qurbaniyazova milliylikni his etish borasidagi tushunchalar mazmunini o'z ilmiy qarashlarida quyidagicha qayd etadi; "Milliylikni his etish – insoniy sifatlarni azaliy kelib chiqishini asoslab, xalqning o'tmishi va azaliy orzu -istaklarini ijtimoiy hayot tarzini, ma'naviy olamini milliy merosini, urf-odatlarini, ruhiyati haqida mustahkam bilim, ko'nikma va malakalar birligiga erishish, ularni ongli ravishda baholash, ma'naviy his-tuyg'ularning ijobjiy bo'lismiga erishish, o'zini ongli ravishda boshqarish, Vatan tuyg'usi bilan yashash, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish; ona tilini e'zozlash va boshqa millatlarga hurmat ila munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirish majmuidir". [20]


Milliy urf-odatlardan, unga oid mafkuralarni shakllantirish, ma'naviy qiyofani ijobjiy tomonga o'zgartirishga muntazam faoliyat yuritadi. Milliy duyoqarashda aks etuvchi omillar asosan urf-odatlar va qadriyatlar hisoblanadi. Shuning uchun har bir shaxs o'zini millat fuqarosi sifatida urf-odatlar va qadriyatlarga sodiq turishi kerak. O'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yuqorida keltirilgan singari talabalarda milliy urf-odatlarga, an'ana va qadriyatlarga nisbatan hurmat e'tiborni oshirishga erishish maqsadga muvifiq hisobanadi.

Tadqiqot davomida mavjud muammolarni o'rganish, ba'zi qarama-qarishi tushunchalarni bartaraf qilishga erishildi: tegishli fanlarni o'qitish davomida talabalarga milliy urf-odatlar, ularning ijtimoiy kelib chiqish tarixi, o'zbek xalqining jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlarni berishga jiddiy e'tibor qaratish.

Asosiy g'oya maishiy muammo hisoblanib, g'yasi va saviyasini jihatidan past musiqa hamda kino san'atini ommaviy axborot tizimi sahifalaridan joy olishlariga jamoatchilik ta'sirini amalag oshirish zarur. Shu qatorida matbuot va nashiryotlarda gazeta va jurnallarni sonini emas ma'naviy saviyasiga e'tibor qartga xolda ijtimoiy ongni o'stirishga, maishiy kemtiklardan xolilashtirishga oid maqolalarni chop etilishiga erishish; ishlab chiqarish va ijod sohalarida samarali faoliyat yuritayotgan zamon qahramonlarini yoshlarga tanishtirishga alohida e'tibor qaratish va bu yo'lida faoliyk ko'rsatish; har bir yosh avlodni oz' navbatida mabfat yo'lidagi harakatlarda millat manfatini ustun qo'yishga o'rgatish; xalqni oldidagi burch va vazifalarini to'la anglash; xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo'lida mehnat qilishlariga erishish uchun psixologik va pedagogik sharoit yaratish; yoshlar o'rtasida vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi tadbirlarning keng ko'lam va yuksak saviyada tashkil etish an'anasi qayta tiklash; xorijiy mamlakatlar va respublika oliv o'quv yurtlari talabalari milliy faxrlanish tuyg'usini rivojlantirishda master modelidan foydalanshga oid tajribalarni o'rgaib chiqish, ularda keltiilgan umumlashtirish, ommalashtirish, choratadbirlar ishslash kabi omillari va vositalarini yetarli darajada o'rganish.[122]



1.4-rasm. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanish yo'llari



1.5-rasm Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayoni

Yuqorida ifodalangan fikrlar asosida oliy ta'lrim muassasalarini talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanish jarayonining mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: talabalar milliy iftixor tuyg'usini

rivojlantirish ijtimoiy extiyoj hisoblanib, milliy mustaqillik va millat taqdiri uchun qayg'urish.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayonini aniqlash, pedagogik muhitni yaratish, ta'lif-tarbiya mazmuniga erishish, talabalar milliy ongiga ta'sir etuvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish lozim.

Oliy ta'lif muassasalarida talabalarning milliy iftixor tuyg'usini egallashlarida mikro va makromuhitning ta'sir etishi kuchli hisoblanadi. Shuningdek talabalar o'zлari mansub bo'lgani ijtimoiy sog'lom muhitdan bahraman etishlarini ta'minlaydi. Talabalarning milliy iftixor tuyg'usini egallashlarida belgilangan mezonlar uzlusiz tarzda o'rganilishi kerak. Demak, oliy ta'lif muassasalarida talabalarning milliy iftixorni egallashi uchun tadbirlarni yaxlit tarzda tashkil etish, samarali omillardan unumli foydalanish, yetarli imkoniyatlarni to'la yaratish.

Talabalar ongini shakllantirishda milliy iftixor tuyg'usini egallashlarida uchun klaster modelining faoliyatdag'i hizmati muhim ahamiyatga ega. Ishning keyingi paragrifida shular xaqida fikr yuritiladi.

1.2-§. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari

Milliy tuyg'u o'tgan asr davomida pedagogik jixatdan jiddiy o'rganildi. Masalan, N.Jandil'din shaxs milliy ruxiyatini tahlil etarkan, milliy tuyg'uning va uning ijtimoiy pedagogik xususiyatlarini yoritishga urindi. Uning fikricha, milliy tuyg'u o'z xalqini va shu singari o'zga millatlarni turmush sharoitini o'zgarishiga bog'liq tarzda inson psixikasini rivojlanish ko'rinishidir. Bunday o'zgarishlarni xalq taqdiri va iftixoriga ta'sir qilishi boshqa millatlar munosabatlarida ham ko'rindi.

Milliy iftixor tuyg'usi millat ajratish tushunchasiga bormasligi kerak.

Milliy iftixor tuyg'usi negizida jonkuyarlik, millat jigar bandi ekanlididan faxrlanish, kishilarga bo'lgan mehr-munosabat, o'zaro birdamlik, manfaatdorlikni yaxshi ko'rish, Vatanga bee'tibor bo'imaslik, vatanning tarixi va kelajagi uchun

qayg'urish va millat qahramonlardan faxrlanish tuyg'ulari rivojlanadi.

Rus olimi I.Ilin o'z asarlarida milliy taraqqiyotni ta'minlashda millat vakillarining vatanparvarlikni egallashlari muhim ekanligiga alohida urg'u bergen holda, shaxsda bu tuyg'usini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.[23]

Mualif bu o'rinda tarbiyachilarning roli alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan holda uning yoshlari o'tasida Vatanga muhabbatli bo'lish lozimligini targ'ib qilishi emas, balki o'zi Vatanga e'tiqod qilishi, shaxsiy harakatlari bilan o'rnak bo'lishi kuchli ta'sir etishini aytadi. Shuningdek, ishda ayrim millatlarning "vatanparvarlik" niqobidagi tor millatchilik, shovinistik, "katta og'a bo'lish orzusiga egalik" bayliyatlarini bartaraf etishda baynalmilal tarbiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish haqida fikr bildirilмаган.

"Milliy tuyg'u"ning mazmunida avstriyalik siyosatchi Otto Dauer asarlarida ham ochib[197] beriladi. "O'zga millatlar bilan yaqindan tanishuv ko'pincha o'z millatiga muhabbat, u bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi, - deya urg'u beradi mualif-ammo bu muhabbatning kuchi jamiyatning turli sinflari va alohida shaxslarida turli ko'rinishda namoyon bo'ladi" [163], bu boradagi qarashlar yoshlari ortasida milliy tarbiyaning tashkil etilishida baynalminal tuyg'larni shakllanishiga yordam beruvchi ta'sirchan iboralardan faoydalnishni ma'qul ko'radi. [197]

So'nggi yillarda pedagogik yo'nalishda ham yoshlarda milliy tuyg'u, vatanparvarlikni shakllantirish muammolarini chuqur tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, V.M.Anoxina va M.B.Pavlov larning ishlarida yoshlarning milliy o'zligini anglash tuyg'ulariga ega bo'lishlari zarurligi, bu o'rinda vatanparvarlik tarbiyasining muhim roli ochib beriladi. Mualiflarning fikrlaricha, jamiyatning kuchi uning oldida turgan vazifalarni ijobjiy hal etishga yo'naltira oluvchi vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqligiga alohida e'tibor qaratiladi. Ularning yondashuvlari yosida milliy madaniyat tushunchasini avlodlar ongida

shakllanishi urf-odatlar va qadriyatlarni singdirishga ishonch sifatida qaraladi.

V.M.Anoxina va M.B.Pavlovalar o'quvchilarning bunday munosabatlari noto'g'ri ekanligini ko'rsatib berishga urinadilar va bu o'rinda V.A.Suxomlinskiyning quyidagi ta'sirchan qarashini keltiradilar: "Vatan - bu sening uying, sening beshiging. Bu uyda barcha narsa totli va yaxshi bo'lavermaydi. Har birimizning o'z kulfatlarmiz va alamlarimiz bor. Vatan to'g'risida gapira turib o'yla: sen qadrdon uyingning kulfatlari va alamlari to'g'risida gapiryapsan".

I.Guberman "Yahudiylar dunyosi" gazetasining 2004 yil 16 dekabr sonida e'lon qilingan maqolasida "Ming afsuski, juda ko'plab jamoat tashkilotlari, kasaba uyushmalari xalqimizda niyoyatda past darajada shakllangan milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalashga deyarli e'tibor berishmayapti deb takidlagan. Bu fojianing asosiy sabablari-tariximizga bo'lgani shтиyoqni yo'qolgani, milliy iftixorni egallanmagani", -qayd etilib, kishi qaysi yurtda yashashidan qat'iy nazar tarixni mukammal bilishi va faxrlanishga jiddiy e'tibor qaratadi. Muallif o'zining jahonga Dizrael', Freyd, Eynshteyn, generallar Slushkevich, Kreyzer, admirall Rikover, mashhur bokschilar Daniel Mendoza, Mars Ber va boshqalarni tarbiyalab bergen yahudiy millati farzandi ekanlididan faxrlanishini aytadi. Uning fikrlari aksariyat jamoatchilik tomonidan keskin tanqid ostiga olindi. Zero, maqolada jahon urushi "olovi"ni yoquvchilardan biri bo'lgan general Kreyzer nomi tilga olingen edi. Bu holatdan ham shuni anglash mumkinki, millatning umumbashariyat taraqqiyotiga yetkazgan zarari bilan emas, balki qo'shgan hissasi bilan faxrlanish zarur. Demak, vatanparvarlik asosida millatchilik g'oyalarini ilgari surish, shovinistik kayfiyatni namoyon etishdan saqlanish zarur. I.Guberman o'z qarashlarida Vatanga muhabbat, millatning atoqli farzandlari bilan faxrlanish bir millatni boshqa millatlardan farqlash, ajratish yoki ustun qo'yishga xizmat qilmasligi lozimligini uqtirgan holda yuqorida xatoga yo'l qo'ydi.

Yuqorida keltirilgan qarashlardan anglanadiki,

shaxsnинг milliy o'zlikni anglash, milliy iftixor tuyg'usiga egaligi kishilarni barcha davrlarda ham millat va Vatan sha'nini himoya qilish, uning manfaatlari yo'lida kurashishga rag'batlantira olgan. Ko'p millatli mamlakatda yangona sovet xalqi"ni shakllantirish Konsepsiysi a'yovalariga ko'ra sobiq Ittifoq davrida milliy o'zlikni anglash, masalalarining tadqiq etilishiga ijtimoiy-siyosiy qarashlar yo'l bermadi. Turli xalqlarning milliy mustaqillikka erishuvli tufayli milliylikni anglash, milliy tuyg'uga ega bo'lish asosida millatning individualligi va milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolishga bo'lgan intilish kuchaydi. Bu holat esa o'z navbatida tadqiqot muammosining yanada dolzarblashuvini ta'minladi.

O'zbekistonda talim sohasining maqsadidan anglash mumkin yoshlar ongigaistiqlol shurini joylash, xalqdan faxrlanish, milliy iftixor tuyg'usini rivojlanishi uchun talaba-pedagog, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi munosabatini amalga oshirish muhim belgulanadi. Faoliyatni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida taraqqiyot va ravnaqini ta'minlash, shu singari, yoshlar tomonidan dunyoviy bilimga ega bo'lish, fanlar asoslarini o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi.

Muammoga tegishli manbalarni o'rganib chiqish, shaxs milliy iftixor tuyg'usi rivojida quyidagi mantiqiy davomiylik asolandi va o'z imkonini berdi:

1. Milliy mansub jixatlar – shaxs ma'lum millatga tegishli ekanligini ko'rsatuvchi hudjat. Ushbu tushuncha shaxsnинг nasl-nasabini aniqlashga xizmat qiladi. Chunki ota-onasi, qomi-qurindoshlik jixatlarini qanday kishilar qavmidan ekanligini farzandlarda ko'rsatib beradi. Qaysi millatga tegishlilik milliy mansublik doirasida onaning roli beqiyos ahamiyatga ega.

2. Milliy tuyg'u psixologiyasi (milliy ruhiyat) – kishilar o'rtaсидаги о'заро munosabatlар va uning mazmunida aks etuvchi xususiyatни obyektiv o'rganish muhim hisblanmoqda. Ijtimoiy faoliyatлarda munosabatlар shaxsnинг atrof-muhitga nisbatan о'заро ta'sirida namoyon bo'ladi.

3. Milliy xarakterning namoyon bo'lishi – millatga tegishli kishilar psixikasida barqaror faoliyatni amalga oshirish ijtimoiy borliqqa munosabat bilan ko'chadi.

4. Milliy ong shakllanishi – millatga tegishli shaxs tomonidan qadriyatlarga tayanib ijtimoiy faoliyatlarda samaranı qo'lga kiritish ongli darajalardan biri hisoblanadi. Falsafiy qo'llanmalarda "milliy dunyoqarash" tushunchasi quyidagicha tariflanadi: "millat tili, urf-odati, milliy qadriyatlar va ma'naviyatni oddiydan murakkabga tomon rivojida muhim mezon hisoblanadi.

5. Milliy o'zligini his etish – har qanday millatning mavjud sub'yekтивлиги, moddiy va ma'naviy jixatdan yetukligi, milliy tili, urf-odatlar, qadriyatlar va davlatga tegishlilik, manfaat va ehtiyoj umumiyligini tushunib yetish [198, 208].

6. Milliy g'urur barqarorligi –kishi tomonidan o'z-o'zini anglashi bilan hosil qilinadiga ichki dunyo. Bu tuyg'uni ona zaminiga, ajdodlar tomonidan qoldirilgan moddiy-ma'naviy meroslarga, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini boshqa millat oldida qadr-qimmat, obro'dan faxrlanishdir.

7. Milliy iftixor tuyg'usini qaror topishi – milliy g'ururlanishdan ko'ra kuchliroq bosqich hisoblanib, millatga ijtimoiy bir xarakatni ongli ravishda his etishdir". Milliy iftixor tuyg'usini egallaganlik, kishilik taraqqiyoti millat tarixidagi o'rnini, jahon rivojiga qo'shgan hissasini, qadr-qimmatini, obro'yini munosib baholash, millat istiqboli to'g'risida ishonchga egalikni ifodalaydi.


Milliy iftixor tuyg'usiga egalikning mantiqiy ketma-ketligini tasvirda shunday ifodalash mumkin. Demak, yoshlar ongida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda shoshma-shosharlik kerak emas, ushbu xolat pedagogik vaqtini otiq sarflashga olib kelishi mumkin.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanishda milliy istiqlol g'oyasini asosiy tushuncha va tamoillarini o'rgatishga qo'yilgan talablarga e'tibor qaratish o'rinni deb hisoblaymiz;

- Mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida talabalarning tafakkuri, qiziqlishi va yosh hususiyatlarini inobatga olish;

Ta'lim-tarbiya sohasidagi tajribalar, o'qitish vositalari, sonnativ ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish;

- Ha'zi iboralarni haddan ortiq qisqartirish, ta'limga eskicha tamoillarni qo'llsh boisidan fanning qadrsizlanishini oldini olish; Ta'lim jarayonida tazyiqsiz ma'rifiy ishlarni yuritish, yoshlarni mustaqil fikrashlarini tarkib toptirish, munozara yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'lim jarayonida tazyiq[197] o'tazmasdan ma'rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrash, babs-munozara yuritish ko'nikmalarini oshirishga e'tiborli bo'lish;



1.6-sasm. Milliy iftixor tuyg'usiga egalikning mantiqiy ketma-ketligi

milliy mustaqillik g'oyalari insoniylik qadriyatları sifatida e'zoqlanishi va talabalar ongida rivojlantirish burch va mas'uliyat etib belgilanadi. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda majburlash, qabix usullaridan uzoqlashish mumkinligini uqtirish kerak. Jahon adabiyotida munosib o'rinni egallagan fransuz yozuvchisi Anatol' Frans: "Tazyiq ostida berilgan bilim, aqlni bug'adi", -degan edi. Har qanday fikrni tinglovchiga yetkazishda, bizning holatimizda, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda o'qituvchi layoqatiga e'bor qilinadi.

Professor-o'qituvchining talabalarga yetkazadigan ma'lumoti didaktik nuqtai nazardan qiziqarli tuzilsa pedagogikaning mavqeysi oshadi.

Yoshlar orasida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga belgilangan materiallar shakli:

- kitoblarda qayd etilgan ma'lumotlarni qiziqarliligi;
- matnga oid ko'rgazmalar tayyorlanishi mumkin.

Har ikkala holatda yozma nashrlar tayyorlanishi, mazkur holatda ko'pchilikni manfaati hisobga olinib auditoriyani kengaytirishni qulay biladi; o'ziga kerakli ta'sirni kitoblar, ko'rgazmali qurollar tayyorlash, yod olingan ma'lumotlarni qayta esga olish, kitobiy matnlar murakkab bo'lsa, professor-o'qituvchi tomonidan osonlashtirib tushuntiriladi va yozma manbaalar tinglovchilarga alohida mutoala qilishga imkoniyat yaratadi.

Dars jarayonida va darsdan tashqari xolatlarda talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish pedagogik tomonidan e'tibor berilishi kerak. O'z navbatida yana bir muhim xolatga e'tibor berish lozim, qanday ta'lif vositalari asosida ma'lumotni yetqazishdir. O'quv adabiyotlari, mavjud ko'rgazmalardan tashqari hozirda zamonaviy audio va video tasmalar, multimedia qurilmalari, videoaqdimotlar, masofali o'qishga qaratilgan elektron versiyalarni qo'llash imkonini kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (ma'ruza matnlari uchun materiallar)" asarida milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirishning shakl va yo'nalishlari haqida fikr yuritiladi; umuman tarbiya nima, g'oyaviy tarbiya nima, g'oyaviy tarbiyaning maqsadi, mas'uliyati xususida, psixologik jihatlari haqida ma'lumot beriladi.[132]

Har qanday tarbiya o'z navbatida shaxs mafkurasini rivojlantirish ekan, pirovard maqsad ilg'or g'oyalarni fuqaro tomonidan ongli o'rganib chiqish va uning tafakkur doirasini kengaytirishga xizmat qilishi kerak. Shu o'rinda bizning holatimizda talabalarga milliy iftixor tuyg'usini singdirish maqsadi klaster modelidan foydalanish millat yutuqlaridan, obro'sidan faxrlanish, uning yutuqlariga e'tiborsiz qaramslik; vatanga nisbatan jonkuyarlik; milliy moddiy-madaniy meroslarni asrashga

jadallanish; xalqning urf-odatlari, qadriyatlarga nisbatan hurmatni oshirish; millatga bo'lgan mehr-oqibatni namayon qilish; ajdodlar me'resiga vorislik qilish kabi tarbiyaviy vazifalar bilan bog'liq.

Psixologiya fanida yetuklik davri psixologiyasi davrlarga bo'lib o'rganilar ekan, tug'ilishdan 22 yoshgacha bo'lgan davrni battalar hayotigacha bo'lgan davr, 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrni esa yoshlik davriga qadam qo'yish, deb belgilanadi. Fadqiqotimizning ob'yekti bo'l mish oliy ta'lif muassasalari talaba yoshlari asosan shu 22 yoshgacha bo'lgan farzandlarimiz bo'lib, hamroq hollarda bu yosh 22 yoshdan 28 yoshgacha, o'ttiz yoshga qadam qo'yish davriga to'g'ri keladi. Aynan ushbu davr, o'spirinlik davri hisoblanib yoshlarda o'zlikni anglash, hurmatga ega bo'lish, boshqalarga o'zaro munosabatda bo'lish, o'zi yoqtirgan va o'ziga yaqin bo'lganlarga intilish, o'zining kimligi bilan qiziqish, boshqalarga taqlid qilish, o'z tanlagan [197] kasbiga sodiqlik, o'zining qiziqishlari doirasiga yaqin ajdodlarimizni o'rganish, tarisini ko'proq o'rganishga ishtiyoq, ulardan o'zicha faxrlanish kabi joshqinlik usurgan davr hisoblanadi. Talabalik davriga tenglashadigan bu davr maqsadimiz nazdida milliy iftixorni rivojlantirishga qulay fursat hisoblanadi.

Masalaning psixologik tomonini o'rganadigan bo'lsak, talabalik (o'spirinlikning yuqori bosqichi)da har qanday muammoni yechish yoki bu davrda tarbiyada biror bir maqsadga erishish uchun bolaga do'st bo'lish kerak bo'ladi. Do'st bu shunday odamki, shaxs u bilan barcha dardu-hasratlarini muhokama qiladi, muammolarini u bilan o'rtoqlashadi. Do'stlikning ham ko'zlagan maqsadlari bo'ladi: u amaliy, ish faoliyat bilan bog'liq, sof emotsiyonal (ya'ni, muloqot ehtiyojlarini qondirish), ratsional (intellektual muammolarni hal qilishga asoslangan), axloqiy (o'zaro insoniy sifatlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi) bo'lishi mumkin. Do'stlikning birinchi sharti - o'zaro bir-birini tushunish. Demak, bizning holatimizda talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klasterni amalga oshishida professor-o'qituvchilar, tarbiyachilarni tarbiyalanuvchiga yanada yaqinlashishlari, unga do'stona munosabatda bo'lishlari, o'z fikrini tarbiyalanuvchiga do'stona singdira olishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana muhim tuyg'ulardan hisoblangan jixatlardan biri, talabalik davridagi sevgi va muhabbatdir. Bu tuyg'u Vatanni sevish va undan faxrlanish bo'lib milliy iftixor tuyg'usini o'z tushunchalari bilan uzviy bog'laydi. Shuning uchun yurtni sevish, millatni yaxshi ko'rish, ajdodlarga loyiq voris bo'lisi o'zi sevgan Vatani kelajagiga yovuzlik qilish niyatidagi kuchlarga nisbatan mardlarcha kurashishga mos tuyg'ularni rivojlanishiga imkon yaratadi.

Oliy o'quv yurti talabalarini kasb tanlashlarida o'zlar yoqtirgan mutaxassislikni egallashlari va qanday shaxsiy sifatlarni mujassamlashtirish kerakligini bilish lozim. Shuningdek ta'lim standartlari asosida yetuk mutahassis tayyorlashda har bir professor-o'qituvchi talabaning qiziqishi va iqtidorini shakllantirishi talab etiladi.

Talabaga biror g'oyani o'rgatishda ideallarni o'rni muhim ahamiyatga ega. Tarbiyalovchi kimni o'z tarbiyasida ko'rishni xohlasa, uning idealini ijobiy tomonga sayqallashtirishi kerak. Masalan talaba shaxsini qiziqishiga bog'liq otasiga yokim yaqin yana kimigadir o'xshab uchuvchi bo'lmoqchi, uni o'rnida o'zini ko'rmoqchi ekanligini bilish mumkin. Ammo qiyin, balkim erishib bilmaydi, intiladi, o'zida otasidagi xatti harakatlarni taqlid qiladi. Yana muhim jihatlardan biri, talabaning qiziqishlarini hisobga olish, unda dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirish jarayonidir. Balkim, shaxsni biror xolatga nisbatan e'tiqodi shakllansa uni yaxshi kishilarga va jamiyatga yordami tegadigan bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiyning hayoti va ijodi butun xalqqa fidoiylik bilan o'tib adabiyotning jaxonda yuksak o'rin tutishida va axloqiy sifatlarni namoyon etishda muhim hisoblanib keldi. Shu singari Muhammad Ismoil al-Buxoriy, Abu Nasr Farobi, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sinolarni ilm-fanda erishgan yutuqlari etiqod zamirida namuna bilindi.

Talabalarni milliy iftixor tuyg'usini rivojlanirish vazifasi juda mas'uliyat talab qilib bu esa tarbiyachilar hamda professor-o'qituvchilardan o'ta kuchli pedagogik mahoratni, pdagogik etikani va madaniyatni talab qiladi. Dars berish fan tarkibidan qatiy nazar ma'ruzachi o'qituvchining o'ziga hos ilmiy qarashi, faniga nisbatan munosabati, fanning tarixini va kelajagini puxta bilishi, e'tiqodni bola shaxsiga ta'sirini unutmashlik kerak.

Biz talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanirish uchun idaster mexanizmidan foydalanish ta'lim ishtiroychilarini hamda mas'ullarni qanday xarakterga ega bo'lisi muhimligini quyidagicha o'rganib chiqdik;

Dirinchidan; tarbiyachi jamiyat orasida o'z o'rniiga egaligi, boshqalarga namuna bo'lisi, talabalar esa bunday xulq-atvorni o'z boyaslarini birga ortishida ko'rsatadilar. O'qituvchi ma'naviy qiyofasida, muamlasida qo'pollik kuzatilsa, faoliyatga kechiksa, ta'mir bo'lsa, o'qituvchi o'z obro'sini yo'qotishi mumkin.

Ikkinchidan; bilimli o'qituvchilarda mustaqil fikrlash kuchli hisoblanib, ma'naviyatda peshqadam bo'lislari kerak. Talaba betakror fikrashi uchun erkin fikrashi, mustaqil mushohada qiliishi, davr yangiliklarini tez anglashiga, o'zini erkin his etib maslaxatlashishi va tushunmagan tomonlarda esa so'rashga o'rganadi;

Uchinchidan; pedagoglarni jamiyat orasida bilimi ustida ishlashi, yangiliklarni tez-tez almashish, millat tarixini va madaniyatini bilish, vatanparvarlik chuqur anglash, kerak. Noddaroq aytganda, pedagog yashayotgan jamiyat orasida ma'naviy qiyofasini alohida ajratib ko'rsatadi;

To'rtinchidan; pedagog o'zi milliy istiqlol g'oyaslarini, millatning buyuk jixatini, bebafo milliy madaniy davlatchilikni tarixini bilishi, Yurt kelajagi uchun qayg'urishi zarur hisylanadi. Talabalar ongiga milliy iftixorni singdirishda tarbiyachi fikri sust, ishonchsiz kuzatilsa, talaba esa uni tez anglab yetib ishonchi yo'qoladi, mehnat samarasiz kechadi;

Beshinchidan; zamon bilan hamnafas tarbiyachi pedagogik faoliyatga yangicha kirishadi, milliy iftixor tuyg'usiga o'ziga hos yondashib pedagogik texnologiyani muntazam qo'llaydi, noananaviy usullardan unumli foydalanib boradi;

Oltinchidan; dars o'tish jarayonida pedagog auditoriyada o'zini uddaburonligi va bilimini ishlatgan holda sog'lom muhit yaratishga erishadi. Mamlakat ravnaqini fanning tushunchalariga bog'lab talabalarda millatga Vatanga nisbatan mas'uliyatni oshirishga erishiladi. Talabani hozirgi vaqtida ko'plab yangi ma'lumotlarni o'rganishga, muamala qilishga va til topishga erishtiradi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish ular tomonidan o'rganiladigan barcha ma'lumotlar (o'quv adabiyotlar, axborot vositalarining ma'lumotlari, o'qitiladigan fan darsliklari) – shakllanishi kerak bo'lgan yangi tasavur, yangicha dunyoqarash va ko'nikmalar ko'lami teranlashadi. O'tgan yillarida mustaqillik g'oyasini, uning strategiyasini, milliy faxrlanishni, milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish uchun belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim xaqidagi qonuni"da, shuningdek, Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida ta'kidlangan. Ularni o'rganishda talabalarni ilg'or ilm-fan ma'lumotlaridan xabardor etish, ajdodlar merosini o'rganish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yordamida ta'lim-tarbiyani tashkil etish qatorida ma'nnaviy-ma'rifiy sharoitlarni yaratishni e'tiborda tutadi. Mazkur harakatlar talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanishi uchun hizmat qiladi.

Oliy o'quv yurtlari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanishda nafaqat professor-o'qituvchilarimizning, balki bevosita ota-onalar savodini oshirish va darajasini shakllantirishga bog'liqdir. Shaxsnинг ma'nnaviy dunyosi, tarbiyasi, avvalo oilada tashkil etiladi. Dastlab farzandlarga ajdodlar o'giti, otalar namunasi, onalar mexribonligi birga milliy iftixor tuyg'usi singdirilib boriladi. Shaxs tarbiyasi, oilani sevish va e'zozlash, Vatanga xiyonat qilmaslik kabi fazilatlarda amalga oshadi. Azaldan o'zbek oilasida tarbiya berish va qadriyatlarni hurmat qilish milliy iftixor tuyg'usini turmush tarziga ajralmas etib belgilaydi. Sharq madaniyati asrlar mobaynida taraqqiy etib xalqni boy merosini va qadriyatlarini ko'z qorachig'idek saqlab kelmoqda. Oilada ota-onalar bolani qanday ishga mashg'ul qilishlari, kitob mutoalla qilishga qiziqishlari, qiziqarli filmarni yaxshi ko'rishlari va yoqimli musiqani tinglashlari kabi harakatlar kuzatilib maslaxat beriladi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozim o'zbek oilalarida ko'p bolali an'ana kamaymoqda. Odatta bolalar aka-ukalari va opa-singillariga yaqin hisoblanib tarbiya berishda ularni roli katta, ota-onalar ham oilada qaysidir farzandni yaqin maslakdoshiga aylanib qolmoqda. O'z o'rinda ota-ona savodxonligi darajasini ham unutmaslik kerak. O'zaro oilaviy muammolar doirasida milliy qadriyatlar va urf-

odatlarimizni muntazam qo'llash maqsadga muvofiq sanaladi. Oilalarda qadriyatlarga nisbatan mexr-shavqat uyg'otishda "Vatan ostonadan boshlanadi" naqiliga amal qilishda va mazmunini his etishda milliy iftixor tuyg'usini samarasi sifatida ko'rindi. Barkamol farzandlar oila yuzini yorug' qilishida avval ota-onalarini surmat qilishlarida namayon bo'ladı.

O'zbekiston oilalari tarbiya uchun qayg'urishini buvilarni hamda bobolarni pand-nasixatlarida ham bilish mumkin. Har bir oila farzandini kichikka izzatda va kattaga hurmatda bo'lishni muhim o'rgatadi. Bu esa farzandlarga bobolarmizdan qolgan meros hisoblanib milliy iftixorimizga aylangandir. Masalan buyuk sarkarda Amir Temurni shaxzodalar uchun joriy qilgan tarbiyasida keksalar nasixatini yuksak baholagan. Shohruh Mirzo nabiralarini, Muhammad Sulton Mirzoning farzandlarini, Xalil Sulton Mirzoning avlodlarini va Ulug'bek Mirzolarning tarbiyasi Saroy Mulk xonim tomonidan olib borilgan.

O'zbekistonda oila hamisha muqaddas bilinib, davlat qonunchiligi doirasida himoyalangan. O'tgan davrimizda yillarning sohnomasiga berlgan atamalarda va unga belgilangan dasturlarda "Oila", "Ayollar", "Sog'lom avlod", "Onalar va bolalar", "Salomatlik yilda keng vazifalarni bajarishga qaratilgan tadbirlar uning yaqqol tegid'idir. [197] Ma'lum jixatlarda talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda quyidagi dasturiy tadbirlarni ham muntazam keng jamoatchilik ishtirokida o'tishi ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa o'z qiziqishlari va iqtidorlari inobatga olinib, tarbiyachi va ota-onalar ta'siri kuchaytirilishi orqali uyushtirilsa kutilgan natijani beradi.

1.3-§. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning joriy holati tahlili

Kuzatishimiz davomida, "iftixor" va "g'urur" iboralarini o'rganish davomida ob'yektni tuzilishidan kelib chiqib individual holatda hamda ijtimoiy xususiyatni ko'rsatib beradi.[122] Shuningdek, shaxs g'ururini –muayyan shaxsga tegishli psixologik xususiyat hisoblab, u shaxsda ijtimoiy mavqeni (jumladan, ma'lum millatning vakili sifatida mavqeyini), shaxsiy xususiyatlarda,

turmush tarzida, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda, erishilgan yutuqlardan qoniqish sanaladi. Shaxs rivojlanishida milliy iftixor tuyg'usini egallanganlik ma'lum millat taqdiri uchun, uning jaxon tashkilotlarida egallagan o'rnnini anglash va faxrlanish demakdir.

Shaxsning milliy iftixor tuyg'usini egallaganik darajasi aniqlash bir qadar murakkab jarayondir. Binobarin, shaxsda namoyon bo'luvchi barcha harakatlar ham uning bu tuyg'uga egaligini ifoda etavermaydi. Oliy o'quv yurti talabalarida milliy iftixor tuyg'usini klaster modeli asosida rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinovni olib borish quyidagicha belgilanadi;

- 1) tajriba-sinov maydonlarini belgilashda pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligini o'rganish;
- 2) tajriba ishlariga malakali pedagog-metodistlarni jalb etish;
- 3) tavsiya etilayotgan metodika samaradorligini uzlusiz tahlil etib borish.

Dastaval oliy o'quv yurtlarida bakalavr bosqichida o'qiydigan talabalarga belgilangan fanlar turkumi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga e'tibor qaratildi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida bu yo'lda harakat tashkil etilganda ta'lim muassasalari kutubxonalarining ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlariga to'la ega emasligi aniqlandi. Jumladan, Nizomiy nomidagi TDPU va T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITIda "Sotsiologiya" (Tuzuvchilar:N.S.Aliqoriyev, O.B.Otamirzayev, M.Bekmurodov, M.X.G'aniyeva, U.Qayumov, A.N.Aliqoriyev, M.Yuldashevlar), "O'zbek tili va adabiyoti" (Tuzuvchi: B.To'xliyev), "Pedagogika tarixi" (Tuzuvchilar: S.Nishonova, S.A.Madyarov), "Tikuvchilik buyumlarini loyihalash, modellash va badiiy bezak" (Tuzuvchi: Q.M.Abdullayeva), "Naqqoshlik" (Tuzuvchi: S.Bulatov) va "Huquqshunoslik" (Tuzuvchi: M.M.Mirhamidov) fanlaridan o'quv dasturlarigina mavjudligi aniqlandi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti kutubxonasi fondidan o'quv dasturlarining o'r'in olishi o'rganilganda, bu yerning ahvoli ijobjiy ekanligi ma'lum bo'ldi. Kutubxona xizmatidan foydalanish asosida bir guruh o'quv fanlari, jumladan, "Milliy taraqqiyotning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari", "Ma'naviyat

asoslari", "Pedagogik aksiologiya", "Rivojlanishning falsafiy Konsepsiysi", "Gnoseologiya", "Ijtimoiy falsafa", "Qadriyatlar falsafasi", "Markaziy Osiyo falsafasi tarixi", "Din tarixi va falsafasi", "Mantiq tarixi", "Nafosat falsafasi", "Madaniyat falsafasi", "Naqqoshlik", "Tikuvchilik buyumlarini loyihalash, modellash tirish va badiiy bezak", "Axloq falsafasi", "O'zbek tili va adabiyoti" "Huquqshunoslik" va "Sotsiologiya" kabi fanlari yuzasidan ishlangan fan dasturlari bo'yicha o'quv fanlari talabalarga milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish imkoniyati borligi anqlandi.

O'quv dasturlari bilan tanishish yuqorida nomlari aytib o'tilgan o'quv fanlarining tadqiqot muammosini hal etishda yetarli imkoniyatga ega ekanligi aniqlandi. Bu imkoniyat 3-ilovada umumlashma asosida keltiriladi.

Kutubxona faoliyatini zamirida shaxs ma'anviyatini shakllanishi, bu esa mazkur tajriba-sinov ishlarida talabalarni ma'rifiy bilimlarini yanada keng yo'yishiga ko'maklashuvchi adabiyotlarga egaligi ko'rildi;

O'rganish natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1. Kutubxonalar fondi mustaqillik yillarda ma'naviyat, shaxs ma'anviyatini shakllantirish, barkamol insonga xos fazilatlar kabi masalalar to'g'risida so'z yurituvchi ko'plab adabiyotlar bilan to'ldirilgan. Bu o'rinda falsafiy olimlar (E.YUsupov, J.Tulenov, Z.G'ofurov, M.Imomnazarov, N.Hakimov, A.Jalolov, Q.Nazarov, F.Ismoilov, A.Erkayev, T.Mahmudov, X.Shayxova, B.Ziyomuhamedov, S.Shermuhamedov, M.Xayrullayev, X.Samatov, M.Isomov va boshqalar), tarixiy olimlar (B.Ahmedov, A.Ahmedov, A.Irisov, G.Hidoyatov, H.Ziyoyev, D.Ziyoyeva, H.Bobobekov, J.Rahimov, M.Lafasov va boshqalar), ijtimoiy fan olimlari (M.Bekmurodov, M.Quronov), psixologik olimlar (E.G'oziyev, G'Shoumarov, B.Shoumarov, M.G.Davletshin, V.Karimova, F.Akromova va boshqalar) va pedagogik olimlar (A.Zunnunov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, S.Ochilov, Sh.Qurbanov, E.Azizov, J.Hasanboyev, O.Hasanboyeva, M.Inomova, R.Safarova, N.Ortiqov va boshqalar) adabiyotlarining o'z mazmuni, g'oyasi barkamol shaxsni shakllantirishga yordam bera olishini alohida aytib o'tish zarur.

2. Mustaqillik yillarda oliy ta'lim mazmunini takomillashtirish, turli ixtisosliklar bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning kasbga tayyorgarligiga jiddiy qaralmoqda, shu qatorida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini mazmunini tadqiq etuvchi ishlar ha ko'paydi. Jumladan, N.N.Azizxo'jayeva, M.G.Davletshin, B.G.Qodirov, A.Mamatdaliyev, M.Yuldashev, Sh.Olimov, B.Jabborov, M.Jumaniyozov, Sh.Qo'chqorov, M.Ochilova, G.Maxmutova, G.Ibragimova, Q.Quronboyev, Z.Qosimova, B.Mirzaolimovlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar shular jumlasidandir.

3. J.Tulenov, Z.E.Yusupov, S.Otamurodov, N.Xo'jamurodov, N.Jo'rayev, X.Sultonov, A.Ochilidiyev, A.Ibrohimov, M.Otajonov, I.Xudoibergaliyev, I.Chesnokova, M.Quronovlar tomonidan yaratilgan adabiyotlarda milliy tarbiya, pedagogika va psixologiya imkoniyatlarini yanada kengaytirish, hamda milliy o'zlikni anglash xaqida ijtimoiy-falsafiy tushunchalarini bildirganlar.

4. Shuni ham qayd etish zarurki, kutubxonalar fondlaridan o'ren olgan adabiyotlar orasida milliy g'urur, milliy iftixon, shaxsda milliy g'urur va iftixorni shakllantirish muammosi o'rganilgan adabiyotlar mutloq o'rinni olmagan. Ayrim adabiyotlarda "milliy iftixon" va "milliy g'urur" iborasi sifatidagina sharhlab o'tilgan. Masalan, "Falsafa. Qisqacha lug'at" (2004-Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kompaniyasi Bosh tahriri, 2004. - 208-bet), Falsafa. Qomusiy lug'at (Q.Nazarov umum. tahriri ostida. -T.: Sharq nashriyot-matbaa kompaniyasi Bosh tahriri, 2004. - 469 bet). Bundan anglanadiki, oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixon tuyg'usini rivojlantirish muammosi falsafiy, psixologik va pedagogik yo'nalishlarda hali o'rganilmagan.[184]

Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish yoshlari, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalari talabalarining aksariyati o'zlarida milliy g'ururni tushunishda milliy o'zlikni anglashlari, milliy iftixon tuyg'usini shakllanishida e'tiborsiz ekanliklari, bu singari hususiyatlarni past ko'rsatgichda rivojlangani aniqlandi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish chog'ida bu holatning sababi o'rganildi. Talabalar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish, ular bilan o'tkazilgan suhbatlar, bahs-

munozaralar, so'rovlardan natijalari mazkur sabablarni aniqlashga yordam berdi.

Asoslovchi tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida talabalarda milliy g'ypyp, iftixon va o'zlikni anglash tuyg'ulari shakllanganligining mavjud darajasini o'rganish maqsadida respondent-talaba va o'qituvchilarning e'tiboriga anketa so'rovlari va test savollarini havola etdik. Ana shu maqsadga yo'naltirilgan anketa so'rovining mazmunidan quyidagi savollar o'rinni oldi:

1. "milliy iftixon", "milliy g'urur" hamda "milliy o'zlikni anglashlari" iboralari sizning nazaringizda qanday ma'noga ega?

2. Milliy iftixon hamda milliy o'zlikni angashni ozingizda qanchalik shakllangan deb hisoblaysiz?

3. Shaxsda milliy iftixon va g'urur, hamda milliy o'zlikni anglash tuyg'ulari qanday omillar yordamida shakllanadi?

4. Sizning fikringizcha, talabalarda milliy iftixon, milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishda o'quv fanlarini imkoniyati mavjudmi?

5. Sizning nazaringizda tarbiyaviy tadbirlar talabalarda milliy iftixon va g'ururni shakllantirishda qanday metod, shakl va vositalarni qanday xizmati bor?

6. Shaxsda milliy g'urur, iftixon va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishda badiiy asarlarning ahamiyatini qanday baxolaysiz? Misollar keltiring.

7. Shaxsan siz milliy iftixon, milliy g'urur va milliy o'zlikni anglash tuyg'ulari ommaviy axborot vositalarini rolini qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz? Fikringizni misollar orqali ifodalang.

8. Shaxsda milliy g'urur, iftixon va o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllanishida oila hamda oilaviy an'analarning o'rni qanday?

9. Shaxsda milliy g'urur, iftixon va o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllanishida talaba mansub bo'lgan mikromuhitning ta'siri bor deb hisoblaysizmi?

10. Siz qanday fikrdasiz, shaxsda milliy g'urur, iftixon va o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllanishi o'zga millat vakillarining manfaatlariga ziyon yetkazadimi?

E'tiborlariga havola etilgan anketa so'roviga javob qaytarar ekanlar, talabalar tomonidan "milliy iftixon", "milliy g'urur", hamda

"milliy o'zlikni anglash" iboralari el-yurt qaxramonlari, buyuk namoyondalari va davlat faxriyilari tomonidan amalaga oshirilgan faoliyat bilan tanishish imkoniyati yaratishini aytdilar.

Xususan, Chirchiq davlat pedagogika universitetining "O'zbek filologiyasi" fakul'teti 1-bosqichida tahlil olayotgan A.Berdiyeva tomonidan qaytarilgan javobda quyidagi fikrlar o'z aksini topgan: "Bugungi kunda O'zbekiston jahonda o'zini har tomonlama rivojlanayotgan davlat sifatida ko'rsatmoqda". So'nggi o'n yil ichida Respublikada katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu, albatta, quvonarli hol. Bu kunlarni ko'rish uchun qanchadan-qancha buyuk daholarimiz, allomalarimiz jon kuydirishgan, qon to'kishgan. Bugungi kunda ularning orzulari ushaldi, ko'plab mamlakatlar O'zbekistonni tan olib, birgalikda qo'shma korxonalar ochib, faoliyat olib borishmoqda.

Shu o'rinda qisqa ifodalanuvchi savol-javob tarzidagi tajriba va nazorat guruhlari talabalarining o'zaro javoblari quyidagicha izohlandi: juda oz sonli respondent-talabalar o'z javoblarida milliy g'urur hamda milliy o'zlikni anglash tushunchalarini sharhlashga uringanlar. Chunonchi, Chirchiq Davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" fakul'tetining "Pedagogika va psixologiya" yo'nalishi 2-bosqichida ta'lif olayotgan S.Sulaymonqulovaning javoblarida quyidagi fikr o'z aksini topgan: "Milliy g'urur deganda har bir millat, xalqning o'zini anglashi natijasida paydo bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyatni tushunaman. Milliy g'urur o'z millati, xalqini chin dildan sevgan har bir insonga xos tuyg'udir. Milliy iftixor tuyg'usi esa xalqning yuksalishidan faxrlanish tuyg'usi sanaladi".

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 18-1-guruh talabasi S.Sulaymonqulova tomonidan berilgan javobda milliy iftixor, milliy g'urur va o'zlikni anglashga oid tushunchalarining mohiyatini ochib berishga bo'lgan urinish ko'zga tashlangani holda fikrni to'g'ri bayon etishda muayyan yanglishishlarga yo'l qo'yilgan, shuningdek, ko'rsatib o'tilgan uch tushunchaning mazmuni ochib berilmagan. Yuqorida keltirilgan javoblar mohiyatidan anglanadiki, talabalar mohiyati ochib berilishi talab etilgan ikki tushunchaning ham mazmunini to'la anglamaydilar. Shu bois, yuqoridagi kabi javoblar qaytarilgan.

Anketa savolnomasi tarkibidan o'ren olgan ikkinchi savolga javob qaytarar ekanlar, respondent-talabalarning aksariyat qismi o'zlikni anglashda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ulari shakllanganligini ta'kidlab o'tadilar. Bu hol tajriba va nazorat guruhi talabalarining tasodifan tanlab olingen 320/322 nafarida namoyon bo'ldi. Biroq ajablanarli jihat shundaki, respondent-talabalar o'zlarini mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lмаган tuyg'ularni o'zlarida mavjud deb hisoblaydilar. Bu holat talabalar tomonidan ayrim tushunchalarining nazariy mohiyatini o'zlashtirish og'ir kechayotganligidan dalolat beradi. Shu bois, oliy o'quv yurti talabalarini ta'lif jarayonini olib borilishida nazariyalarni chuqur o'rganishiga e'tibor qilish vazifasi ilgari surildi.

Keyingi navbatda 3-savol bo'yicha javob qayatrishlari davomida respondentlar quyidagicha fikrladilar: "Mening fikrimcha, shaxsda milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'ulari o'quv muassasalarida ta'lif olish sharoitida hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish orqali shakllantiriladi".[122]

Javob mazmunidan anglanadiki, respondent-talabalar yuqorida qayd etilgan tuyg'ular tor doirada emas, balki keng ko'lamdag'i ijtimoiy muhit ta'siri, shuningdek, juda ko'plab omillar yordamida shakllanishi borasidagi tushunchalarga ega emaslar. Ushbu holat tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan va tasodifan tanlab olingen 375/314 nafarni tashkil etgan respondentlarning javoblarida o'z aksini topgan.

Faqatgina 23/8 nafar respondent milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'ulari xalq merosi manbalarini o'qib o'rganish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, xalq qahramonlari, ulug' mutafakkirlar hamda davlat arboblari tomonidan amalga oshirilgan faoliyat mazmunini tahlil etish asosida shakllanishiga urg'u berib o'tadilar.[122]

"Sizning fikringizcha, talabalarda milliy iftixor, milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirish davomida o'quv hamda mutaxassislik fanlari zarurmi?" qabilida berilgan savollarga respondent talabalar javob qaytarishlarida: "Falsafa", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "O'zbekiston tarixi", "O'zbek adabiyoti tarixi" kabi o'quv fanlarining katta imkoniyatlarga tayanib milliy iftixor, milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini

shakllantirishni ta'kidlab o'tadilar. Shuni ta'kidlash joizki; "Pedagogik", "Ijtimoiy pedagogika", "Folklorshunoslik", "Xalq og'zaki ijodi", "Psixologiya", "Dunyo dinlari tarixi", "Axloqshunoslik", "Estetika" singari fanlar imkoniyatlarini ko'rmaganlar.

Anketa savollari mazmunidan o'rin olgan beshinchi savolga nisbatan munosabat bildirishda quyidagi fikrni ilgari surishgan: auditoriyadan holi tashkil etiladigan va ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi tadbirlarda milliy g'urur, milliy iftixorni shakllantirishga ko'maklashadi.

Masalan, "Farzand kamoli-yurt jamoli", "Assalom, Navro'z!", "Istiqlolning shonli yillari", "Mardlar quriqlaydi Vatanni", "Qalam bilan jahonni zabit etgan alloma" kabi mavzulardagi ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi tadbirlar shaxsan menda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Tajriba hamda nazorat guruhlari uchun ajratilgan respondent-talabalarning auditoriyadan holi tashkil qilinadigan ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi tadbirlarni namoyish etish orqali talabalar ma'naviyatini rivojlanishi milliy iftixorni va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishdagi imkoniyatlari cheksiz ekanligini alohida qayd etganlar.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayoniga jaib etilgan talabalarning aksariyat qismi to'la ishonch bilan talabalarda milliy iftixor, milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishda badiiy asarlarning o'rni va ularda ilgari surilgan g'oyalarning ahamiyati beqiyos ekanligini qayd etganlari holda, bu borada katta imkoniyatga ega bo'lgan badiiy asarlardan namunalar keltirishda faoliik ko'rsatmaganlar. Tajriba guruhining 43 nafar, nazorat guruhining 51 nafar respondenti tomonidan qaytarilgan javoblarda ana shunday ta'sir kuchiga ega bo'lgan bir qator badiiy adabiyotlarning nomlari keltirilgan. Bunday adabiyotlar sirasidan Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Alisher Navoiy", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari" kabi nasriy hamda H.Olimjonning "O'zbekiston", A.Oripovning "O'zbekiston" va "Men nechun sevaman O'zbekistonni", E.Vohidovning "O'zbegim",

"O'zbekistonim", M.Yusufning "Xalqim", "Hech kimga bermaymiz, seni O'zbekiston!" kabi she'riy asarlarning nomlarini alohida ko'rsatib o'tganlar.

Shuningdek talabalarda shaxs milliy g'ururidan joy olgan va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda yuksak tarbiyaviy kuchga ega ma'naviy meroslarimizdan hisoblangan Alisher Navoiyning "Xamsa", Firdavsiyning "Shohnoma", Kaykovusning "Qobusnomi", A.Cho'lponning "Xalq", A.Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq", U.Nosirning "Yurak", asarlari o'z zamonasining noyob durdonlari sifatida yartilganligi, keyingi davrda O'.Xoshimovning "Ikki eshik orasi", T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar", M.Do'stning "Lolazor" nomli nasriy asarlarda, S.Sayyidning "Vatan abadiy" hamda Sh.Rahmon va M.Toyirning she'riy asarlarni e'tibordan qoldirganlar.

Mazkur asarlarning har biri o'zining kuchli qiymatiga ega asarlar hisoblanib, yoshlarni milliy vatanparvarlikka va faxlanishga chorlaydi. Asar qaxramonlari o'z vatanining sha'nini himoya qilishdek jasurlikni, qolaversa yana shu singari mardlikni va matonatlilikni ifodalab bergen. Milliy iftixor tuyg'usini ana shunday asarlardan foydalanib tushuntirish esa talabalarga pedagogik va psixologik imkoniyatni beradi. Shaxsda o'zlikni anglash, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini rivojlanishida ommaviy axborot vositalarini o'rni diqqatga sazovor ekanligini respondent-talabalar o'z savolnomalarida ijobiy munosabat bildirdilar. Ularning javoblarida davriy nashrlarda tarixiy mavzularda yaratilgan maqolalarning chop etilishi, radio va televideniye orqali namoyish etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy eshittirish va ko'rsatuvlarning yoshlarda ma'naviy-axloqiy xislatlar, chunonchi, milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'usining shakllanishidagi o'rnini yuqori darajada baholaganlar.

Biroq fikrlarini misollar asosida bayon etishda bir oz qilyinchiliklarga duch kelganlar. Aksariyat javoblarda radio va televideniying bu boradagi o'rni intellektual mazmundagi eshittirish va ko'rsatuvlarning namoyish etilishi bilan bog'liq holda ochib beriladi. Ammo talabalar bevosita shaxsda milliy g'yyp, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'usining shakllanishga xizmat

qiluvchi "Javohir", "Adabiy meros", "Qishloq haqida o'ylar", "Bir o'lkaki...", "Qishloqdag'i tengdoshim", "Oltin meros", "Qo'li gul usta", "Siyrat", "Champion sirlari", "Ohangrabo", "Xotira" kabi radioeshittirish va teleko'rsatuvlarning nomlarini qayd etmaganlar.

Sakkizinch savol yuzasidan respondent-talabalar oila muhiti va unda qaror topgan an'analarning shaxs ma'naviyati, xususan, milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'usining shakllanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etishiiga urg'u berib o'tganlar. Ushbu savol borasida bildirgan fikr-mulohazalari bir qadar to'la ifodalangan bo'lib, unda talabalar oila sulolasining tarkib topishini ifoda etuvchi shajara, shuningdek, oila a'zolarining kasbiy faoliyati borasidagi an'analar yoshlar kamolotini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatib o'tganlar. Shu bois, oilaviy shajaraning mohiyatidan xabardor bo'lish va oila an'nalarini davom ettirishni o'zlarining insoniy burchi deb biladilar.

Mazkur savolga javob berish chog'ida talabalarning aksariyati oila shajarasi xususida ham so'z yuritganlar. Xususan, Chirchiq Davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" fakul'tetining 2-bosqich talabasi Tursunboyev Sanjar tomonidan berilgan javob alohida e'tiborga loyiqidir. Mazkur javobda quyidagi fikrlar bayon etilgandir: "Ota-onam tomonidan bildirilgan fikrlar asosida oila sulolasi vakillarining boshlang'ich bo'g'ini eshonlardan bo'lganliklaridan xabardorman. Ayni vaqtida oila shajarasining 6 nafar vakili borasida ma'lumotga egaman. Ular quyidagilardir: otam-Yaxshiboy, bobolarim-Bobonazar, Husanboy, Qodirboy, Muhammadkarim, Jumaboy".

Demak, talaba o'zi bilan hisoblaganda yetti ajdodini yaxshi biladi. Respondent-talabalarning aksariyati oila shajarasining to'rt (bir nechta respondent esa besh) nafar vakillari borasida ma'lumotlarga ega ekanliklarini ta'kidlab o'tadilar. Ularning soni ko'rsatkichlar bo'yicha tajriba guruhining 147 nafar, nazorat guruhining 162 nafar respondentini tashkil etadi. Quyida ana shunday mazmundagi javoblardan bir nechtasini keltirib o'tamiz: "Bizning oilamiz sulolasining vakillari quyidagilardir: otam-Hotamboyev O'ktam, bobolarim-Hotamboyev Umirzod, Bobomurodov Hotam, Jumayev Bobomurod, Jumaboy. Sulolamizning aksariyat vakillari dehqonchilik bilan shug'ullanib

kelishgan. Ayni vaqtida bu ish bilan otam hamda akalarim shug'ullanmoqdalar" (Chirchiq Davlat pedagogika universiteti pedagogika fakul'tetining 2-bosqichi talabasi Mamarajabov Oybek tomonidan berilgan javob).

Tegishli ravishda tajriba va nazorat guruuhlarining 123/147 nafar respondenti savolnoma tarkibidan o'r'in olgan to'qqizinch savol yuzasidan javob qaytarar ekanlar, shaxsda milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllanishida mikromuhitning o'rni katta ekanligini e'tirof etganlari holda, tegishli ravishda 197/175 nafar respondent shaxsning ma'naviy jihatdan shakllanishi, shuningdek, ularda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ularining tarbiyalanishiga ular mansub bo'lgan mikromuhit hech qanday ta'sir ko'rsatmasligini ifoda etgan. Ushbu holat talabalarning shaxsni shakllanishida mikromuhit va uning ta'siri borasidagi qarashga ega emasliklarini anglatadi.

"Shaxsda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash kabi tuyg'ularning shakllanishi unga hayotda o'z o'rnini topishi, muayyan mavqega ega bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek, shaxs tomonidan hayotiy maqsadning belgilanishi va uning amalgalishi uchun kurashishga rag'bat uyg'otadi. Qayd etilgan tuyg'ularga ega bo'lish ajdodlar tomonidan bosib o'tgan yo'lni takrorlashga, ularga munosib bo'lishga yordam beradi. Ammo ushbu tuyg'ular hech qachon o'zga millat yoki elatlarning manfaatlariga ziyon yetkazish, ularning xaq-huquqini poymol qilish istagini vujudga kelishini ta'minlamaydi.

Milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ulari ijobjiy xususiyatga ega. Bizga yaxshi ma'lumki, negizida ezgulik, yaxshilik mavjud bo'lgan ijobjiy fazilatlar hech vaqt qabohatning kelib chiqishiga zamin yaratmagan. Mazkur fikrlar Chirchiq Davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" fakul'tetining 2-bosqich talabasi Ch.Mahmudova tomonidan qaytarilgan javob mazmunida o'z aksini topgan. Ushbu mulohazalarni bildirish asosida har ikkala guruhga ajratilgan respondentlar shaxsda milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'ulariga egalik o'zga millat vakillarining manfaatlariga ziyon yetkazmasligini ta'kidlaydilar.

Respondent-talabalar e'tiboriga havola etilgan anketa so'rovi natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, ularning aksariyati milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash kabi tuyg'ularning nazariy mohiyatini to'laqonli ravishda anglamaydilar. Biroq mazkur fazilatlarga ega bo'lish shaxsga kelajak sari dadil intilish, yurt ravnaqi va Vatan mustahkamligi uchun kurashishga undovchi rag'batning yuzaga kelishida muhim ahamiyatga egaligini his etadilar. Milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash kabi tuyg'ularga ega shaxs o'zi mansub bo'lgan yurt va millat ravnaqi, taraqqiyoti yo'lida muayyan ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash kabi tuyg'ularni shakllantirishda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan hamda tadqiqot muammosi mohiyatini yorituvchi jarayonning faol sub'yektlaridan biri bo'lgan pedagog xodimlarning o'rni va ahamiyati kattadir. Talabalar milliy g'urur va o'zlikni anglashlari davomida shaxsiy namuna bolish uchun milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish muhim ekanligini angladilar. Ularning shaxsiy namunasi, shuningdek, ular tomonidan mashg'ulotlar chog'ida o'zlashtirilayotgan mavzular negizida talabalarda milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash kabi tuyg'ularni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. [122]

Talabalar bilan faol muloqot o'rnata oluvchi pedagoglar ularning shaxsiy fazilatlari xususida ham yetarli darajada ma'lumotlarga ega bo'la oladilar. Shu bois, tadqiqot jarayonida olib boriladigan tajriba-sinov ishlarni yo'lga qo'yishda ularning yordamlaridan foydalanish samarali natijalar berishini nazarda tutgan holda respondent sifatida tanlanishlariga erishdik. Asoslovchi tajriba-sinov ishlari jarayonida respondent-pedagoglar e'tiboriga ham talabalarda milliy iftixor tuyg'usining mavjud darajasi haqida axborot bera olish imkoniga ega bo'lgan anketa so'rovnomasini havola etdik. Anketa so'rovnomasi tarkibidan quyidagi savollarning o'rin olishi ta'minlandi:

1. Siz "milliy g'urur", "milliy iftixor" hamda "milliy o'zlikni anglash" kabi tushunchalarni qanday sharhlagan bo'lar edingiz?

2. Siz o'zingizda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash kabi tuyg'ularni shakllantira olganmisiz va bu borada talabalarga ibrat

ko'rnata olasizmi?

3. Siz qanday fikrdasiz: talabalar milliy g'urur, milliy iftixor hamda milliy o'zlikni anglash kabi tuyg'ularga egamilar? [122]

4. Talabalarda milliy o'zlikni anglashlari milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish muhim ahamiyatga egami? Fikringizni misollar yordamida izoxlang!

5. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga siz faoliyat qilayotgan oliy ta'lim muassasasida e'tibor qaratilganmi? Fikringizni misollar yordamida ifodabilan izohlang.

6. Sizning fikringizcha, shaxsda milliy g'urur, milliy iftixor hamda milliy o'zlikni anglash kabi tuyg'ular qanday sharoit va omillar asosida shakllanadi?

7. Mashg'ulotlar davomida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga harakat qilasizmi?

8. Talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda qanday metod va vositalardan foydalanasiz?

9. Talabalarda milliy iftixor tuyg'ularini rivojlantirish uchun fanlararo aloqalarni va jamoatchilik ishtirokiga tayanasizmi?

10. Talabalarda milliy iftixor tuyg'ularini rivojlantirishda samaradorlikka erishish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish mumkin?

Respondent-o'qituvchilarning e'tiboriga havola etilgan savolnomaga ular tomonidan bildirilgan munosabat xususida quyida batafsil to'xtolib o'tamiz. Savolnomada tarkibidan o'r'in olgan birinchi savolga javob berar ekanlar, respondentlar quyidagicha fikr bildirdilar: "Milliy iftixor va milliy g'urur tuyg'ulari nazrimizda bir xil tushuncha anglatib, shaxsning mansub millatda erishgan yutuqlariga nisbatan faxrlanishni bildiradi. Milliy o'zlikni anglash tushunchasi esa, mening fikrimcha, shaxsning qanday millat yoki elat vakili ekanligini tushunib yetishini anglatishga xizmat qiladi".

Javoblarda ko'rinib turibdiki, aksariyat respondent-o'qituvchilar sharhlashlari talab etilgan tushunchalarning mohiyatini to'laqonli tushunmaydilar. Mazkur tajriba-sinovida ishtirok etgan falsafa, tarix fanlarining o'qituvchilari ushbu iboralar mohiyatini to'la yoritganlar.

Xususan, Chirchiq davlat pedagogika universitetining pedagogika fani o'qituvchisi D.Ismoilova bu o'rinda quyidagi fikrni bayon etadi: "Milliy iftixor tuyg'usini shaxsning or-nomusi, qadr-qimmati va hurmatini yuksak qo'yish, milliy iftixor tuyg'usini ulkan madaniyatga egalik bilan milliy o'zlikdan faxrlanish, vatanga sodiqlik va uning qadriyatlariga sadoqatni anglatadi". Bu tarzda berilgan javoblar soni u qadar ko'p bo'lmay, ular miqdor jihatidan 12/64 tani tashkil etadi.

Respondentlar tomonidan ushbu savol bo'yicha olingan javoblar mazmuni tahlil etilganda, ularning ko'rsatgichlardagi ifodasi quyidagicha bo'ldi:

- "milliy g'urur", "milliy iftixor" hamda «milliy o'zlikni anglash» kabi tushunchalarini to'g'ri sharhlay olgan respondentlar - 19%;
- mazkur tushunchalar mohiyatini to'g'ri sharhlashga uringan, biroq yetarli darajada ochib bera olmagan respondentlar - 39%;
- mazkur tushunchalar mohiyatini noto'g'ri sharhlagan respondentlar - 42%.

Ikkinchi savol yuzasidan munosabat bildirar ekan, respondent-o'qituvchilarining katta qismi o'zlarining milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ulariga ega ekanliklarini bayon etganlari holda, amaliy jihatdan talabalarga bu borada ibrat ko'rsata olish imkoniyatini har doim ham qo'lga krita olmasliklari va bundan afsuslanishlarini ta'kidlab o'tganlar.

Ko'rsatgichlar asosida respondentlarning javoblari quyidagi mazmunga ega bo'ldi:

- milliy iftixor va o'zlikni anglash tuyg'ulariga ega hamda bu borada talabalarga ibrat ko'rsata oladigan respondent-o'qituvchilar - 16%;
- milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ulariga ega, ammo bu borada talabalarga ibrat ko'rsatishda ma'lum qiyinchiliklarga duch keluvchi respondent-o'qituvchilar - 33%;
- o'zimda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ulari yetarli darajada shakllanmagan, deb hisoblovchi respondent-o'qituvchilar - 51%.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi" fakul'tetining o'qituvchisi

Ojabborovaning javoblarida quyidagi fikrlar bayon etilgan va ushbu fikr anketa savolnomasi tarkibiga kiritilgan uchinchi savol yuzasidan respondent-o'qituvchilar ko'pchiligining mulohazalarini ifoda etadi: "Talabalarning milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ulariga ega ekanliklarini ko'p holdarda ular bilan tashkil etiladigan muloqotlar jarayonida anglay olish qiyin. Mening nazarimda, ular bunday tuyg'ularga egalar. Biroq ularning milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ulariga egalik darajasi yuqori ko'rsatgichlarda namoyon bo'ladi deyish fikridan yiroqman". Ushbu savol yuzasidan turli mazmunda qaytarilgan javoblar soni ko'rsatgichlar vositasida quyidagi ifodaga ega bo'ldi:

- talabalar yuqori darajada milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ulariga ega talabalar, ammo hamisha ham amalda nomoisiq etolmaydilar - 27%;
- talabalarda milliy iftixor tuyg'usini egallagan talabalar, ammo utorda bu tuyg'uni shakllangan darajasi yuqqori bo'lмаганлар - 31%;
- milliy iftixor tuyg'usini past ko'rsatgichdagi talabalar - 42%.

Talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlanishi ijtimoiy jixati Talabalarda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllanishi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi hamma respondent-o'qituvchilar tomonidan birdek (100 foiz ko'rsatgich miqdorida) e'tirof etiladi. Xususan, bu o'rinda Guliston davlat universiteti pedagogika fakul'tetining o'qituvchisi U.Q.Xoliqov shunday fikrlarni bildiradi: "Ana shunday tuyg'ularga egalik nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat ravnaqini ham ta'minlaydi. Shu bois ichki imkoniyatlardan to'laqonli foydalilanigan holda talabalarda bunday tuyg'ularni shakllantirish maqsadga muvofiq. Zero, ular istiqbolda jamiyat ravnaqini ta'min etuvchi faol sub'yektlar sanaladilar va jamiyatning ertangi kuni ularning qo'lida".

Chirchiq davlat pedagogika universitetidan tajriba-sinov ishlarijalga jalb etilgan respondent-o'qituvchilar o'zlarini faoliyat ko'rsatayotgan oliy o'quv yurtlarida talabalarda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllantirishga alohida ahamiyat berilishini alohida ta'kidlagan holda, ushbu maqsadda

tashkil etilayotgan pedagogik faoliyat sirasida tarixiy manzillarga uyushtiriluvchi ekskursiyalar, ilm-fan, texnika va madaniyat sohalarida mehnat qilayottan kishilar bilan tashkil etiluvchi uchrashuvlar, shuningdek, madaniy meros namunalari bilan tanishishga xizmat qiluvchi tadbirlarning roli katta bo'layotganligini bayon etadilar.

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti hamda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining respondent sifatida belgilangan o'qituvchilarining javoblarida esa o'zları faoliyat yuritayotgan ta'lím muassasalarida turli yo'nalish va mavzularda tashkil etiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda qaysidir darajada talabalarda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllantirishga xizmat qilishini aytib o'tadilar. Respondent-o'qituvchilarning 23 nafar salbiy tarzda 63 nafar respondentning ijobiy javobiga qarshi javob berdilar. Salbiy mazmundagi javoblarda ta'kidlanishicha, ular faoliyat olib borayotgan oliy o'quv yurtlarida talabalarda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllantirishga nisbatan yetarli darajada e'tibor berilmaydi. Tashkil etilayotgan tadbirlarning aksariyati ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish rejasida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqib uyuştiriladi hamda ularda talabalarning faol ishtirok etishlariga u qadar e'tibor berilmaydi. Respondentlarning mazkur savol bo'yicha qaytargan javoblari mazmun jihatidan ko'rsatgichlar yordamida o'z ifodasini topganda quyidagi holat yuzaga keldi:

- oliy o'quv yurti talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga alohida e'tibo qaratilib keinadi va uning yuzasidan yuksak yutuqlar qo'lga kiritiladi - 11%;
- men faoliyat olib borayotgan oliy ta'lím muassasasida talabalarda milliy g'urur, iftixor va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishga ahamiyat beriladi va biroq bu borada yutuqlarga erishilganicha yo'q - 27%;
- talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga yetarli darajalarda e'tibor qaratmaydi - 62%

respondent-o'qituvchilarining ta'kidlashlaricha, talabalarning milliy iftixor tuyg'usini egallashlari uchun quyidagi shart-sharitlarni omillar bilan olib boriladi:

- tarixiy qqadamjolarga sayoxatlar uyuştirish davomida - 10%;
- milliy-madaniy meros namunalari o'qib-o'rganish asosida - 15%;
- jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy voqe-a-hodisalarning mohiyatini to'laqonli ravishda anglash asosida - 17%;
- ilm-fan, texnika, texnologiya, madaniyat, xususan, sport sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishish asosida - 15%.

Yetinchi savolga nisbatan munosabat bildirishda respondent-o'qituvchilar quyidagicha javobni ta'kidlaganlar:

- mashg'ulot davomida milliy tuyg'uni shakllantirishda uddalayman va harakat qilaman degan talabalar - 26%;
- mashg'ulotlar jarayonida talabalarda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllantirib borishga harakat qilaman, biroq bu borada hali sezilarli yutuqni qo'lga kiritganim yo'q - 11%;
- mashg'ulotlar jarayonida talabalarda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirib borishga u qadar jiddiy e'tibor bermayman, buning boisi bu boradagi harakatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi shakl va metodlardan xabardor emasman - 43%. [122]

Savolnomaning tarkibidan joy olgan sakkizinchı savolga respondent-o'qituvchilarining quyidagi javoblari qayd etilgan:

- suhbat, sayoxatlar, amaliy-ijodiy mashg'ulotlar (ijodiy ishlar tayyorlash, yozma ishlar tashkil qilish) shakllar va og'zaki bayon qilish, namuna metodlardan foydalnish davomida - 52%;
- bu o'rinda uchrashuv, ekskursiya, amaliy mashg'ulotlar kabi shakllar hamda noan'anaviy metodlardan foydalanaman - 48%.

"Talabalarning milliy iftixorini rivojlantirishda fanlarning aloqasini va jamoatchilik hamkorligi muhim hisoblanadi. Zero, g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ulari shaxsda bevosita ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladi. Shu bois, mashg'ulotlar jarayonida ushbu omillardan samarali foydalanishga harakat

qilaman" tarzda fikrni ilgari surish asosida savolnomaning tarkibiga kirgan to'qqizinchı savolga javob bergan.

Talabalarning ushbu savolga nisbatan munosabatlari ko'rsatgichlar yordamida quyidagi ko'rinishda aks etadi:

- talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanirish jarayonida jamoatchilik hamkorligiga extiyojim bor - 29 %;
- bu borada fanlararo aloqadorlik hamda jamoatchilik hamkorligiga tayanib ish ko'rishga nisbatan ehtiyoj sezmadim - 47 %;

- fanlararo aloqadorlik hamda jamoatchilik hamkorligiga tayanib ish ko'rishga nisbatan ehtiyoj sezaman, biroq ulardan samarali foydalanishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelaman - 24 %.

Tajriba oxirida talabalarning milliy iftixor tuyg'usi bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalari quyidagi ko'rsatgichlarda belgilandi.

Respondent-talabalar tomonidan milliy iftixor tuyg'usi o'rtacha rivojlanganlik natijasi quyidagicha hisoblandi:

- talabalarda milliy iftixor va o'zlikni anglash tuyg'ularini rivojlanishi milliy qadriyatlar mazmunini yoritishi zarur bo'lgan ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni o'tqazishga erishish - 76 %;
- ta'sirchan ekskursiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq - 16 %;
- ma'naviy-ma'rifiy mavzularda uchrashuvlar tashkil etish - 8 %.


Yuqoridaquyidagi ko'rsatkichlar diagrammada ifodalanganda quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ldi: Talaba va o'qituvchilarda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllanganlik darajasi yuqori emas. Xulosaning yanada asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida talabalar o'rtasida test so'rovi tashkil etildi. Test so'rovining tashkil etilishidan ko'zlangan maqsad talabalarda milliy g'urur, iftixor hamda o'zlikni anglash tuyg'ulari shakllanganlik darajasining mavjud holatini aniqlash etib belgilandi (1-ilovaga qarang).

So'nggi o'ninchi savol yuzasidan javob qaytarishda respondent-o'qituvchilar quyidagi takliflarni ilgari suradilar:

1.1-jadval

Respondent-talabalarda milliy iftixor tuyg'usi shakllanganligining o'rtacha koeffitsenti

Груп	Груп	Тажриба аввалида			Коэффицент
		Югори	О'рта	Паст	
Tajriba n ₁ =320		31	152	137	4,04
Nazorat n ₂ =322		33	71	218	3,67



1.7-rasm. Respondent-talabalarda milliy iftixor tuyg'usining rivojlanganlik darajasini o'rtacha hisobi diagrammada

Test so'rovi natijalari yuqorida bayon etilgan xulosaning haqqoniy ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanirish asosan ularda Vatanparvarlikni, yurt osyishtaligini, xalq tinchligi va farovonligini ta'minlashda hizmat qilishi, o'z tug'ilib o'zsgan Vataninini tinchligi va barqarorligi yo'llida jangavor harakat qilishi, o'zga millat va elatlarga tegishli fuqarolar o'rtasida birdamlilikni barqarorlashishda hissasini

qo'shishi, millatning kishisi sifatida qadrini tushunishga undaydi.

Milliy pedagogika mazmunida shaxsda milliy o'zlikni anglash, milliy tarbiya va o'zlikni anglash g'oyalari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmudxuja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, kabi ko'plab mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Bu muammoni ilmiy asosda tizimli o'rganishga XX asrning 70-yillaridan boshlab jiddiy e'tibor qaratildi. Natijada falsafiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy yo'nalishlarda qator tadqiqotlar amalga oshirildi. N.Jandil'din, I.II'in, O.Bauer, V.M.Anoxina, M.B.Pavlova, I.Guberman, E.Romanova, E.F.Shirokova hamda J.T.Filippovalarning ishlari shular jumlasidandir.

Milliy iftixor tuyg'usi aslida millatchilikni anglatmaydi, balki antonimi hisoblangan insonning ijobiy fazilati sanaladi. Ammo, millatchilikning markazida: 1) o'z millatini boshqa millatlardan ustun qo'yuvchi etnopedagogik ko'rsatma sifatidagi majmuasi; 2) shovinistik tuzim kayfiyatini ilgari suruvchi siyosiy mafkuralar tizimi; 3) etnik buzg'unch mafkuraviy harakatchilar va shovinistik g'oyalarni tarafдорлари aks etadi.

Shaxsning milliy faxlanish tuyg'usini egallanganini aniqlash bir qadar murakkabdir. Binobarin, shaxsning namoyon bo'luchchi barcha harakatlari ham uning bu tuyg'uga egaligini ifoda etavermaydi. Shu bois asoslovchi tajriba davridayoq tajriba-sinov ishlaringin to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot muamosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish oliy ta'lim muassasalari talabalarining aksariyati o'zlarida milliy iftixor tuyg'ucini shakllantirishga befarq ekanligi yoki bu kabi sifatlarning past darajada rivojlanganligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlarini olib borishda buning sabablari o'rganildi. Talabalar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish, ular ishtirokida ijtimoiy so'rovlarni tashkil etish natijalari sabablarni aniqlashga yordam berdi.

II BOB. TALABALARDA MILLIYIFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

2.1.4. Talabalarda milliyiftixor tuyg'usini rivojlantirishda aksiologik yondashuv: manbalar tahlili

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviyat sohasidagi muhim ishlardan biri bu milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi bo'ldi. Binobarin, milliy qadriyatlar millat vakillari tomonidan o'silening anglanishi, ularning milliy g'urur va iftixorga ega bo'lishlarida muhim omil sanaladi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni ogari suradi: "O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi, milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning huchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharotlarni vujudga keltiradi". [137]

O'zbek xalqi asrlar davomida kelayotgan yil dehqonchiligining xayrli, barakali bo'lishi uchun ekin ekish, dalaga ulev chiqarish va urug' qardashga tayyorgarlik, yangi niyatlarning tug'ilishi ayyomi sifatida Navro'zni ulug'lab, uni katta tantana sifatida nishonlab kelgan. Navro'z bayramini nishonlashda millatning o'zligi, uning tabiatga bo'lgan muhabbatni namoyon bo'lgan.

Totalitar davrda noto'g'ri mafkuraviy qarashlar, diniy g'oyalarning inkor etilishi ta'sirida, shuningdek, "din millatchilik va shovinizmga har doim yo'l ochishini, iqtisodiy, sotsial taraqqiyotiga to'sqinlik qilishini, sotsialistik turmush tarzi, kommunistik ma'naviyatning qaror topishiga to'sqinlik qilishini" nazarda tutgan holda islam dinining shakllanishiga hech qanday aloqasi bo'limgan Navro'zning milliy bayram sifatida nishonlanishi dastlab ta'qilab qo'yildi, so'ngra sun'iy ravishda "Navbahor" bayramiga aylantirildi. 1906 yil yanvar'-fevralda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kommunistik partiyaning XXI s'yezdida bu boradagi ilk qaror qabul qilgan bo'lsa, shu yilning oktyabr oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Kommunistik partiya Markaziy Komitetining III Plenumi yakuniy

qaror chiqardi. Natijada ezgu umidlar, pok niyatlar bilan nishonlanadigan «Gul bayrami», «Lola sayli», «Qovun sayli» va «Hosil bayrami» kabi milliy an'analar unutila boshlandi.

Bu kabi harakatlar zaminida millatni milliy o'zligidan, milliy tuyg'ularidan, borliqqa bo'lgan an'anaviy yondoshuvidan mahrum etishdek qabih niyat bor edi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi bilan birga millatning asriy qadriyatlari sanalgan Navro'z bayramini nishonlash an'anası qayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Navro'z umumxalq bayramini o'tkazish choralari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 1991 yildan boshlab har yili 21 mart Navro'z bayrami sifatida ommaviy ravishda nishonlanib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida «Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy qadriyatlari imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko'rildi». Ana shu yo'lida amalga oshirilgan xayrli ishlardan biri Islom dinining ikki muqaddas ayyomi – Iydi-Ramazon va Iydi-Qurban ayyomlariga bo'lgan munosabatning o'zgartirilishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida Farmonlariga ko'ra Ramazon (1992 yil 27 mart) va Qurban hayiti ayyomlari yil solnomasiga bayram kuni sifatida nishonlana boshlandi. Natijada, kishilar hayat kunlarida yaqinlarining holidan xabar olish, yordamga muhtoj kishilardan hol-ahvol so'rash, xayrli, savob ishlarni bajarishdek tarixiy an'anaga amal qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Binobarin, "Qur'oni Karim"ning Alouddin Mansur tomonidan tayyorlangan, "Hadis" asarining Abdulg'ani Abdulloh tomonidan qilingan tarjimalarining chop etilishi ham asrlar davomida o'zbek xalqining e'tiqodi sifatida ulug'lanib kelayotgan qadriyatlар qayta tiklanganligining yana bir yorqin namunasidir.

Sobiq Ittifoq davri bu kabi muqaddas manbalarni o'zbek tilida o'qish u yoqda tursin, ularning nomlarini ham tilga olish "qoloqlik", "ilmiy haqiqatlarni inkor etish", "johillik" deya qoralanar edi. "Qur'oni Karim" va hadislarining tarjimalari yoshlar, jumladan, talabalarga muqaddas manbalarda ilgari surilgan ezgu g'oyalari (tinchlikni ulug'lash, insonni inson tomonidan qadrlanishi, iymonli, e'tiqodli, bilimli bo'lishning ahamiyati, kibr, boylikka berilmaslik,

harom va halojning farqiga borish, mavjud moddiy ne'matlarni a'rash, ularni isrof, uvol qilmaslik, beva-bechora, yetim-esirlarning haqqiga xiyonat qilmaslik va boshqalar)ning asl mohiyati bilan tanishish, ularning mazmunini o'rganish imkonini yaratadi. Manbalarning asl mohiyati bilan tanishishning pedagogik ahamiyati shundan iboratki, ular buzg'unchi g'oya tarafdarlarining tashviqotlariga ishonish, ularning ko'rsatmalariga so'zsiz quloq solishdan avval mulohaza yuritish, ularning fikrlarini tahlil qilish bayoqtiga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Sho'ro tuzumining mafkuraviy yondashuvi tufayli "Qur'oni Karim" va hadislarining millat taraqqiyotida tutgan o'rni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdag'i ahamiyati borasida tadqiqotlarning olib borilishi ham ta'qilangan edi.

Shuningdek, Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" ("Ishonarli to'plam"), "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari"), Imom Iso at-Termiziyning "Al-jome' as-sahih" ("Ishonarli to'plam"), "Ash-Shamoil an-Nabaviya" ("Payg'ambarlarning alohida fazilatlari"), Alisher Navoiyning totalitar tuzum davrida "diniy g'oyalarni targ'ib etuvchi" asar sifatida o'rganilishi ta'qilangan "Munojot", "Arba'in" hamda "Tarixi anbiyo va hukamo" ("Payg'ambarlar va hokimlar haqida" nomli asarlari nashrdan chiqarildiki, bu holat yoshlар tomonidan islomiy iqrashlarni "soxta bilimdonlar" tomonidan qilinayotgan talqin emas, balki xolis yondashuv asosida yoritilgan ma'lumotlar, mulohazalar yordamida o'rganilishi uchun zamin yaratdi).

Islom dini g'oyalarni ilmiy asosda o'rganish, ularni aslicha yosh avlodga yetkazish borasida 1995 yil 19 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Qarorga muvofiq tashkil etilgan Xalqaro islom tadqiqot markazi o'ziga xos o'rin tutadi. Zero, ushbu markazning asosiy vazifasi respublika aholisi, xususan, yoshlarga "milliy qadriyatlarni va haqiqiy islom ta'limotini yetkazish, mavjud islomiy osori-atiqalar tarixini o'rganish, nodir qo'lyozma asarlarni tadqiq etish, ular bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, darslik va qo'llanmalar, lug'atlar tayyorlash va nashr qilishdan iboratdir". Shuningdek, ko'plab madrasalarning faoliyati qayta yo'lga qo'yildi. Ayni paytda mamlakatimizning har bir viloyatida kamida bittadan diniy

Madrasa, Toshkent shahrida esa Toshkent Islom Universiteti, Xalqaro Islom tadqiqotlar markazi, Imom al-Buxoriy nomidagi Islom ma'hadi, Eshon Boboxon nomidagi ayollar madrasasi, Abulqosim va Ko'kaldosh madrasalari ishlab turibdi.

Islom dini farzlaridan biri – bu haj ziyyoratini ado etish hisoblanadi. O'zbek xalqi mustabid tuzum davrida uzoq yillar garchi islom diniga e'tiqod qilsa-da, bu farzni ado etish imkoniyatidan mahrum bo'lib yashadi. Respublika hukumati rahbariyatining shijoati bilan 1990 yilning hijriy yil hisobi bilan Ramazon oyida musulmonlarning haj amalini ado etishlari uchun sharoit yaratildi. "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining e'lon qilinishi katta hodisa bo'ldi.

B.Aminov, T.Rasulov o'zlarining "Vatan - yurakdagi javohir" nomli kitoblarida o'quvchi yoshlarda milliy g'ypyp va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, ularni Vataniga fidoyilik, iymon-e'tiqodlilik, ota-bobolar merosi, pand-nasihatlariga sadoqatl bo'lish ruhida tarbiyalashga doir o'quv materiallarini taqdim etganlar. Kitobda tariximizda yorqin iz qoldirgan siymolar to'g'risida berilgan materiallar o'quvchilarning o'z Vatanlari bo'lmish O'zbekistonni sevib, asrab-avaylashlari, uning istiqboli uchun kurashida muhim omil bo'lishi shubhasizdir. O'zbekiston Respublikasi bиринчи Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "O'zbekiston - muqaddas Vatan, ota-bobolarimiz yotgan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har qarichiga mehru muhabbat uyg'otish bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi." [136] Darhaqiqat, dunyoda shunday bir buyuk so'z borki, u inson yuragidagi ilohiy nur kabi doim yolqinlanib turadi, nur tarab tanga quvvat, ruhga rohat, odam hayotiga bir umr farog'at bag'ishlaydi. Bu laziz va aziz "Vatan" so'zidir, u mo"tabar "Ona" so'zidan tug'iladi. [136]

Hayotda Vatan bitta, ona bitta! bo'ladi, bu tushuncha hech qachon o'zgarmaydi va eskirmaydi ham. Shu o'rinda "Vatanda eng suyukli zot" iborasini ifodalab "Ona-Vatan faxriysi" deymiz.

N.Ortiqovning tadqiqot ishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi roli va ahamiyati masalasi tadqiq etiladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lамини rivojida "Maktab-oila-mahalla" tizimining shakllantirilishiga erishish yoshlarda mustahkam shaxsiy dunyoqarashni shakllantirishda zarur omil belgilanib, ilmiy va metodologik ta'limotlar, xalq pedagogikasining noyob durdonalarini o'z qarashlarida bayon qiladi. Muallifning fikricha, "... aqliy kamolot va axloqiy barkamollikka erishishi yo'li ta'lim va tarbiya orqali o'tadi. Demak, ayni chog'da shunga e'tibor berish zarurki, ya'ni farzandlarimizni go'zal xulqli, odobli, serfazilat qilib voyaga yetkazish uchun ko'proq o'z ildizlarimizdan, o'z ma'naviy sarchashmalarimizdan foydalanishimiz kerak". [21]

S.Nishonovaning ilmiy izlanishlarida Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi masalasi o'r ganilgan. Ishda asosiy e'tibor Sharq Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy qarashlarini tahlil etish asosida ularning barkamol inson tarbiyasi to'g'risidagi ta'limotlarida ilgari surilgan umumiylar qarashlar, shuningdek, xususiy yondoshuvlarni aniqlash, ularni ma'lum tizimga solishga qaratilgan. [22]

Muallif tomonidan sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlarda komil insonni shakllantirish masalasi o'rн tutib va bugungi kunda ularni ilmiy ahamini ochib berilishi ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarasini ko'tarish uchun muhim yo'riqnomalar bo'lib xizmat qiladi. [122]

Respublikamiz olimlarining ma'naviyatga oid asarları milliy qadriyatlarni va uni yosh avlodlar ongiga singdirish haqida fikr yurtdilar.

O.Musurmonova "Oila ma'naviyati – milliy g'urur" nomli asarida o'zbek oilasi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bola tarbiyasida alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan. Muallif ta'kidlaganidek, oila tarbiyasi, bиринчи navbatda, ota va ona zimmasiga tushadi. Bolalar tarbiyasiga asosiy ta'sirchan kuch-qudrat, bu onadir. Bu o'zbek oilalari tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan

an'anadir. Oila va uning mohiyati, oilaning har tomonlama jipsligini ta'minlash shart-sharoitlari, oila tarbiyasi-milliy iftixordir. Mazkur tushunchalardan ma'lumki, tarbiya davlatning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Davlat hech qachon millatdan yuz o'girmaydi. Tarbiya asosida ajdodlarning sinalgan, maqbul, hayotiy tajribasi o'rganiladi va yosh avlodga yetkaziladi, odamlarning ongi-shurini, hulq-atvorini rivojlantirish uchun jamiyatda axloqiy normalar o'rganiladi.

Ishda O'zbekistonda milliy tarbiya g'oyasining tiklanishi va rivojlanishi, milliy tarbiya mezonlari, ta'limning milliy tarbiyaviy ahamiyatlari kabi masalalar ham ilmiy dalillar yordamida oshib berilgan. Bo'lajak o'qituvchilar ushbu asar bilan tanishish natijasida o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini bir qadar batafsil o'zlashtira oladilar.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish, ular tomonidan islomiy qadriyatlarga to'g'ri bera olish layoqatini tarbiyalashda respublika miqyosida Islom olamida o'zlarining alohida o'rinalarini egallashlari buyuk allomalarining yubiley yillarini nishonlash yo'lida amalga oshirilgan tadbirlar ham muhim ahamiyatga ega. Imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi, Najmuddin Kubroning 850 yilligi, Bahovuddin Naqshbandning 675 yilligi, Xoja Ahrori Valiyning 600 yilligi, Imom Ismoil al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy tavqim bo'yicha 1225 yilligining keng ko'landa nishonlanishi yoshlar uchun o'zga xos tarbiya namunasi bo'ldi. Binobarin, bunday tadbirlar orqali ulug' allomalarga bo'lgan cheksiz hurmat va ularning Islom ta'limotini rivojlantirishga qo'shgan hissalarini oldidagi ehtiromni namoyish etildi. O'tganlarni yodlash, ularning faoliyatidan xabardor bo'lish hamda mehnatlariga nisbatan ehtirom bildirish o'zbek xalqining o'zligiga xos fazilatdir.

Ayni vaqtida ular yoshlarga milliy o'zlikni anglatish, ularda Vatan va millatga bo'lgan mehr-muhabbatni qaror toptirish, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishda alohida o'rinn tutadi. Biroq, totalitar tuzum davrida milliy ozodlik harakatlarining qayta yuzaga

kelishidan qo'rqqan ayrim ideologlar milliy-madaniy merosni o'rganishda qat'iy cheklovlar bo'lishi kerakligi to'g'risidagi taklifni ilgari surdilar. Jumladan, 1986 yil 4 oktyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston KPMKnning III Plenumida shu haqida alohida so'z yuritilib, unda quyidagi mulohazalar ilgari surildi: "O'tmishni ideallashtirish, nosinfiy va notarixiy yondashuv shunga olib keldiki, Temur kabi feodal zolimlar teatr sahnalarida, kino ekranlarida, kitob sahifalarida shu vaqtga qadar ko'zga tashlanib turibdi, ayrim yozuvchilarining e'tiborida tarix haqiqatiga zid ravishda u insонparvar va uzoqni ko'ra biluvchi siyosatchi qilib ko'rsatilgan. Bu borada tipik o'rta asrga xos jihatlarni ko'ra olish uchun Pirimqul Qodirovda sinfiy yetuklik yetishmadidi. Yozuvchi Boburning haqiqiy bosqinchilik faoliyatlarini sezmay, uning go'yo ma'rifatparvar podsholigi, nozik didli lirk shoir va ulkan tarixchiligiga qoyil qolib, erib ketadiyu, ko'z yoshi qiladi.

Bunday kaltabinlik dastlab qaraganda beozor ko'rinsada, aslo bunday emas. Uning zamirida tarixni qaytadan yozishga urinish, patriarchal davrni qo'msashni targ'ib qilish, islomni milliy madaniyatning xazinachisi qilib ko'rsatishga urinish yotadi." [7]

Millat tarixi, uning madaniyati va taraqqiyotiga nisbatan bunday yondashuv aslida uni tobe qilish, o'zligini anglay olmaydigan zombiga aylantirishga intilish edi. Biroq, asrlar silsilasida toblangan, mustahkam ildizga ega bo'lib borgan milliy-madaniy merosni millat tarixidan o'chirib yuborishga qaratilgan harakat samarasiz yakun topdi. Pirimqul Qodirovning Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi vakillarining hayoti, faoliyati, shuningdek, ijodi haqida hikoya qiluvchi "Yulduzli tunlar", keyinroq esa mazkur romanning davomi sanaluvchi "Avlodlar davoni" asarlari chop etildi.

"Qizil imperiya" Amir Temurga, u orqali o'zbek xalqiga nisbatan tahqirlash siyosatini olib borgan bir paytda xorijda bu benazir zotga bag'ishlangan ko'plab ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy, sun'at asarlari yaratildi, xalqaro anjumanlar o'tkazildi, uning nomi bilan bog'liq ommaviy tashkilotlar tuzildi, muzeylar ochildi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan eng xayrli ishlardan biri - bu akademik I.Mo'minov tomonidan boshlangan, biroq masifikuraviy ta'ziqqa uchragan harakatning o'z samarasini

berganligi bo'ldi. Aynan shu yillarda "qonxo'r", "zolim" deya sifatlangan Amir Temur shaxsi o'zining munosib bahosiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1996 yilning "Amir Temur yili" deb e'lon qilinishi, shu yili mard sarkarda tavalludi 660 yilligining nishonlanishi sohibqiron shaxsi, uning hayoti va faoliyatini o'rganishga keng imkoniyatlar ochdi. Sohibqironning "Temur tuzuklari" asari e'lon qilindi. "Go'ri Amir" maqbarasi ta'mirlandi. Shu yilning oktabr oyida Toshkent shahrida "Temuriylar tarixi" davlat muzeyining ochilishi yoshlar o'rtasida sohibqiron tomonidan amalga oshirilgan va o'zbek davlatchiligining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar to'g'risida batafsil ma'lumotlarni berish, ularni tasviriy-obrazli tarzda yetkazib berish imkoniyatini yaratdi.

Mustaqillikdan so'ng o'tgan o'n besh yil ichida Amir Temur hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumotlar beruvchi bir qator ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Jumladan, A.Hayitmetovning "Amir Temur va o'zbek adabiyoti", B.Ahmedovning "Amir Temur", B.Ahmedov, A.Aminovlarning "Amir Temur o'gitlari", H.Karomatovning mas'ul muharrirrigidagi "Amir Temur jahon tarixida" nomli asarlari, shuningdek, A.Oripovning "Sohibqiron" va M.Jalilning "Sohibqiron Temur" dramalari yaratildi. "O'zbekfil'm" tomonidan ko'p qismli "Amir Temur" fil'mi suratga olindi.

E'tiqodsizlik ulug'langan davrda "o'zida mistik qarashlarni yoritgan, xalq o'rtasida jaholat, razolatni targ'ib etuvchi" asarlar deya baholangan va milliy adabiyotdan majburan olib tashlangan asarlarning nashr etilishi yo'lida ham samarali ishlar amalga oshirildi. Natijada, Sulaymon Boqirg'oniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamahshariy, Feruz (Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxon soniy) Husayn Boyqaro, kabi o'zbek adabiyotining noyob durdonalarini o'qib-o'rganish imkoniyati eshigi ochildi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan yana bir xayrli ish - bu jadidchilik harakatining yetakchilari bo'lgan va "xalq dushmani" deya qatog'on qilingan Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Abdulhamid Cho'lpox, Abdulla Qodiri va Usmon Nosir kabi o'zbek millatining otashqalb o'g'lonlari asarlarning xalqqa qaytarilishi bo'ldi. "Qatog'on qurbanlari"

jamg'armasining tashkil etilishi, mazkur jamg'armaning qo'llab-quvvatlashi bilan jadidchilik harakati rahbarlari va namoyandalarining hayoti va ijodining o'rganilishi, asarlarining qayta tiklanishi va chop etilishi, ular hayotining so'nggi kunlarini yorituvchi arxiv materiallarining o'rganilishi, shuningdek, "Qatog'on qurbanlari" nomli xotira maydonining barpo etilishi yosh avlodni vatanparvar etib tarbiyalash, ularda milliy adabiy merosga nisbatan hurmatni qaror toptirish va vatandoshlarining vatan ozodligi, millat hurligi yo'lida olib borgan kurashlaridan faxlanish tuyg'usini shakllantirishga katta yordam beradi.

Qayta tiklangan milliy qadriyatlar orasida o'zbek tili mavqeini ko'tarishga qaratilgan ijtimoiy harakat alohida ahamiyatga ega. Garchi 1989 yilning 21 oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra o'zbek tili davlat tili maqomini olgan bo'lsa-da, bu farmonning ahamiyati mustaqillik yillaridagina to'la namoyon bo'ldi. Ayni vaqtida respublika uzlusiz ta'lim tizimida o'qitish ishlari, ishlab chiqarishda ish yuritish o'zbek tilida amalga oshirilmoqda. Ish o'rinalarda va jamoat joylarida ham o'zbek tilida murojaat etish, shu tilda muloqot qilish, asarlar yaratish imkoniyati yuzaga keldi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida milliy til imkoniyatlarini targ'ib qilish, uning ijtimoiy ahamiyati va milliy ruhiyatning namoyon bo'lishidagi rolini oshib berish asosida ularda o'zbek tiliga bo'lgan hurmatni qaror toptirish, til sofligini ta'minlash vazifasi turibdi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanish jarayonida milliy qadriyatlarni qayta tiklanishining ahamiyati quyidagi holatlarda ko'zga tashlanishini isbotladi:

1. Talabalar tomonidan milliy qadriyatlar, ularning mohiyati va ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi bilimlarning o'zlashtirilishi.

2. Ularga islomiy g'oyalarning asl mohiyatini to'g'ri anglashlari, Islom ta'limotining rivojiga katta hizmat ko'rsatgan vatandoshlarimiz, ularning hayotlari va faoliyatlariga oid ma'lumotlarni egallashlari uchun zarur shart-sharoitning yaratilganligi.

3. Ularning milliy urf-odat, marosim va an'analarda ilgari surilgan ezgu insoniy qarashlardan xabardor bo'lishlari.

4. Talabalarning o'zbek milliy davlatchiligining asoschisi - sohibqiron Amir Temur shaxsini anglashlari, u tomonidan boshlangan ezgu ishning davomchilar bo'lismga ruhlanishlari, uning mamlakatni adolat bilan boshqarish g'oyalariga sadoqatli bo'lislari.

5. O'z Vatanlarida milliy tilda so'zlashish, kasbiy faoliyatni olib borishda o'zbek tilidan foydalanish huquqiga ega bo'lism.

6. Talabalarning Turkistonda yo'lga qo'yilgan jadidchilik faoliyati, uning maqsad va vazifalari, harakat faollarining shaxsi, hayoti va faoliyatlaridan xabardor bo'lislari, ularning fidoiyliklaridan namuna o'zlashtirishlari.

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi natijasida yuzaga kelgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, ular to'g'risida talabalarni xabardor etish kutilgan natijalarni bera oladi.

Ishning navbatdagagi paragrafida ana shu imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanishga doir amaliy asoslari to'g'risida so'z yuritiladi.

2.2-§. Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda tarixiy yondashuv: retrospektiv tahlil

Milliy xususiyatlar azaldan O'zbek xalqining milliy madaniyatini, ilm-fanda tutgan, adabiyot va san'atda erishgan yutuqlarini, oilaviy turmushda bola tarbiyasi uchun qo'llanib kelinmoqda. Milliy madaniy meros hisoblainib kelayotgan o'zbek urf-odatlari, ananalari, inson tafakkurining yutug'idir. Yurtimizda yashayotgan har qanday millat ajdodlar merosini va tajribalarini o'rganishga qiziqishi yuqori darajada baholanmoqda. Bu noyob merosni yosh-avlodga tushuntirish, undan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatish, ulardan faxrlanish orqali milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish o'z natijasini beradi. Har qanday millatga o'zining ajdodlaridan meros an'analar yetib kelgan. Masalan, qozoqlar o'tmishda ikki yuzdan ortiq narsani ta'qilab qo'yanlarki, bular qozoq xalqining o'ziga xos milliy tabiat, madaniyati, adabiyoti, tili va e'tiqodlarini ko'z qorachig'iday

avaylab-asrashga xizmat qiladi. Bu kabi ta'qiqlarning ayrimlari mana bulardir:

O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma!

Nonning ustiga biror narsa qo'yma va nonni tepmagine!

Tuzni bosma!

Yoshi ulug' keksalarning yo'lini kesib o'tmagin!

Ota-onangga qo'pollik qilmagin!

Chumoli va qushlarning uyasini buzmagin! va h.o.

Gurzinlarning yaxshi bir odati bor. Bu odat avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Qizni kuyovga uzatayotgan ota-onal sepiga albatta Shota Rustavelining "Arslon terisini yopingan pahlavon" dostonini qo'shib qo'yari ekan. Chunki bu kitob ona zaminni, millat shon-sharafini, gruzin o'g'onlarining jasoratini tarannum etgan. U gruzin millatining milliy iftixori hisoblanadi. Shu kitobni bermagan ota-onaga qattiq tanbeh beriladi, sep chala hisoblanadi.

Kanadada ko'hna daraxtlar konkursi o'tkazilib, eng uzoq yashagan daraxtg'a medal beriladi. Tabiatga bo'lgan bunday munosabat bilan yerlik xalq faxrlanar ekan.

Boltiqbo'yida har yili uzoq umr ko'rgan daraxtlar qaytadan ro'yxatga olinadi. Estoniyaning Muxu orolida yashovchi aholi yog'och supa ustiga qup-quruq, yarmi chirigan baliqchilarning behisob qayiqlarini to'nikarib qo'yishar ekan. O'z vaqtida bu qayiqlar ajdodlarga beminnat xizmat qilganligi bois, oshiq-ma'shuqlarning uchrashuvlariga guvoh bo'lganligi, bolalarni voyaga yetkazishda yordami tekkanligi, xalqqa ko'maklashganligi, kishilar ulardan faqat yaxshilik ko'rganligi uchun ularni unutib bo'lmasligini, ular bebaho qadriyat ekanligini ta'kidlaydi.

Bu va bunga o'xshash ko'plab misollar har bir millatning o'z qadriyatlari, madaniyati, ma'naviyatini asrab-avaylab kelajak avlodga yetkazish va millat istiqboli yo'lida ulardan foydalanishi uchun talabalr milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

O'zbek xalqi tarixiga, madaniy merosiga hurmat - bu uning yaratuvchilariga, rivojlantiruvchilariga va davomchilariga izzat-ikrom, mehr-oqibat demakdir. O'tmishdoshlarimizga biz qanday munosabatda bo'lsak, farzandlarimizdan bizga shunday javob qaytishligini talabalarimizga tushuntirish masalaning muhim

jihatlaridan biri. O'tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e'zozlasak, hozirgi davrni, mustaqillikning istiqbolini shunchalik chuqur anglaymiz. Mustaqillik tufayli xalqimizning madaniyima'naviy taraqqiyotiga keng yo'l ochildi. Milliy meros mohiyatini anglashgina emas, shu bilan birga uni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratildi. Juda ko'plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiylar qo'lyozmalar ketma-ket qayta nashr qilinmoqda. Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash ishlari boshlangan. Buyuk allomalar tomonidan yaratilgan va har xil sabablar bilan respublikadan tashqariga tashib ketilgan, milliy boy meroslarimiz, jamiyatimizning milliy iftixori hisoblangan san'atini, qimmatli qo'lyozma nuxxalarini topilishi, ularni vatanimizga qaytarish ishlari amalga oshirildi. "Noyob durdonalarni saqlash va tamirlashda o'zbek milliy madniyat markazlarini hissasi kattadir. O'z navbatida bu kabi milliy boyliklarni ajdodlar merosi sifatida saqlnishi kelajak yoshlrga milliy iftixor etib belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi odob-axloq qoidalarimiz qadriyatlar o'rnda bizlar uchun bebaho milliy meros, ma'naviy boylikdir. Ana shu milliy qadriyatlarni tiklash, ulardan foydalanish, yosh avlodga yetkazish mustaqillikni mustahkamlashda, unga qarshilik qiladigan har qanday kuchga zarba berishda, farzandlarimizda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda dasturi amal bo'ladi, degan fikrdamiz.

Bilimlarni puxta egallahsga intilish, ustozlarni hurmat qilish, odamgarchilik, mardlik, kamtarlik, haqiqatparvarlik, halollik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lash borasida ham boshqalar ibrat olishi mumkin bo'lgan qadriyatlarimiz juda ko'p.

Milliy qadriyatlarimizda bilim, ayniqsa, bilimdonlik ulug'lanadi. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq narsa yo'qligi to'g'risida qadimgi hind xalqining «Kalila va Dimna», Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisrovning «Saodatnoma», "Ro'shnama", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa", "Mahbub-ul qulub" kabi mashhur asarlarida muhim fikrlar aytilgan.

O'zbek xalqini milliy madaniyati va o'tmishi insonlari ilm-fan asoslarini bilishlariga chorlamagan, o'sha dvrda bu sigari bilim

xalqida yozmagan shoir yokim yozuvchi, olim bo'lмаган. Buyuk bobokalonlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Varg'oniylarning qalamlariga mansub asarlarning har biri insoniyat uchun mislsiz boylik, bitmas-tuganmas xazinadir. Aslida ular o'zbek xalqining milliy faxri, iftixori hisoblanib boshqa donishmandlarning ilmiy-adabiy va badiiy, falsafiy, tarixiy va axloqiy yo'nalishlarda kelajak avlodlar uchun manbaa bo'lib hizmat qilmoqda.

Zehn-zakovatda, aqlo-idrokda, ilm-fanda tengi yo'q, buyuk kashfiyotlari bilan dunyoni lol qoldirgan mutafakkirlar, mashhur kishilari borligi bilan o'zbek xalqi qancha faxrlansa, iftixor qilsa arziyi! O'zbek xalqining ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan buyuk an'ana va milliy merosimiz sifatida o'rganilib yoshlarga milliy iftixor sifatida ko'rinxanadi.

XII asrning iste'dodli shoiri va donishmandi Ahmad Yugnakiy "Hibatul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") asarida ilmli va ilmsizning, olim va johilning farqli tomonlarini shunday oshib beradi: "...bilimdon kishilarga o'zingni bog'la. Bilim bilan baxtsaodat yo'llari o'rganiladi, bilim egallab, saodat yo'lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arzimas qalbaki (aqcha)dir. Bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo'ladi? Bilimli ayol er(mard)dir, bilimsiz er ayol(zaif)dir. Suyakka ilik, er kishiga ilm kerak. Erning ko'rki aql, suyakning ko'rki ilikdir. Bilimsiz iliksiz suyakdek bo'sh - quruqdir, iliksiz suyakka esa qo'l uzatmaydilar. Er kishi bilim o'rganib, bilguvchi bo'lib qoladi, bilimsiz tiriklikda ko'rgulikdar ichida qoladi. Bilimli er o'lsa ham oti o'chmaydi, bilimsiz kishi hayot chog'ida ham uning oti o'likdir" Bu purhikmat fikrlar hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ma'rifikatning inson qadr-qimmati va izzat-e'tiborini oshirishdagi ahamiyati Kaykovusning "Qobusnomá", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga eltuvchi bilim") nomli asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Yusuf Xos Hojibning quyidagi fikrlarini o'zlariga hayot dasturi qilib olgan biror inson adashmaydi, alloma va uning asarlarini milliy iftixorimiz ekanligini yanayam chuqurroq anglaydi: "Zakovat qorong'u tundagi mash'al kabidir, bilim esa nur tarqatuvchi

yorug'likdir. Kimda zakovat bo'lsa, o'sha asil odam bo'ladi, kimda bilim bo'lsa, u martabaga erishadi. Bilim javohir kabi bir yerda to'planib turadi, u zakovatning konidir, bir yerda jamlanib yotadi. Mushk-anbar va bilim bir-biriga o'xshash narsalardir, ularni o'zidan bo'laklardan yashirib saqlab bo'lmaydi. Mushk-anbarni yashirsang, uni hidi oshkora qiladi, bilimni yashirsang, uni tiling oshkora qiladi. Bilim o'z sohibini qashshoq qilmaydigan bitmas-tuganmas boylikdir, o'g'ri va qalloblar uni hech qachon o'g'irlab ola olmaydi".

Inson qanchalik ilmli, hunarli bo'lsa, shunchalik oddiy va kamtar bo'ladi. Kamtar insonning obro'si oshadi, do'stlari ko'payadi, hammaga birday yoqadi. Kamtar inson yumshoq, sahovatli, odob-andishali, ibo-hayoli bo'ladi.

Millatimiz urf-odatlarida va qadriyatlari uchun takaburlar, fribgarlar, maqtanchoq batollar qattiq qoralangan edi. Kamtarga - kamol, manmanga zavol, - deydi o'zbek xalqi. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida kamtarlik haqida shunday yozadi: "Tavoze' – do'stlik gulshanida toza gullar ochadi va chamandan oshnolik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochadi. Tavoze' – takabbur muxolifa muloyimlik va kamtarlik yo'lini ko'rsatadi". Afg'oniston fanlar akademiyasi muxbir a'zosi doktor Abdulla Habib taniqli adib N.Jo'rayev bilan bo'lgan muloqotda shunday deydi: "Mir Alisher Navoiy o'zbekning buyuk farzandi, ayni paytda u umumbashariy shaxs! Amir Alisherning xizmati o'zida bashariyat manfaatini mujassam etgan. Biroq uning tili O'zbekiston tili, milliy iftixor uchun shu jihatning o'zi yetarli".

Odobli kishi boshqalarning ham tashvishini o'ziniki bilishi va xalqi uchun yoqimlidir U kerak bo'lsa mansabli va go'zalroq kishilardan ham hurmatliroqdirlar. Taxsinlisi odobli kishi do'stlari orasida ham katta hurmat-obro'ga ega.

Xorazmlik buyuk o'zbek mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy mamlakat obodonchiligi ilm-fanning gullab-yashnashiga bog'liq, kishining baxti esa uning bilim va ma'rifatida, deb ta'kidlagan. Alloh insonni baxtli yoki baxtsiz qilib yaratmaydi. Bunga uning o'zi sababchi. Chunki alloh insonga iroda, ixtiyor, tanlash va faoliyat erkinligini berib qo'ygan. Aqlli va bilimlilar o'zlarini o'zlari baxtli qila oladilar.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, urf-odatlar, an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar-hayotiy tajribalar o'zbek xalq pedagogikasida mujassamdir.

O'tmishda oilada turli mavzudagi ertak, latifa, hikmatlardan keng foydalanilgan. Ota-onalarning tunda uyqu oldidan aytib bergan ertaklaridan bolalar ruhiy oziq olgan, hayotdag'i va odamlardagi yaxshi fazilat, yomon xislatlarni bilib olishgan, hurmat va muruvvat,adolat kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishgan. Natijada, butun hayotlari davomida ertaklar ularning doimiy hamrohi, hayot darsligi bo'lib xizmat qilgan va hozir ham shunday bo'lmoqda. Ularning qahramonlari o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat, faxr-iftixor namunasidir.

Xalq pedagogikasida og'zaki ijod namunasi bo'lgan dostonlar ham tarbiyaviy ahamiyati jihatidan salmoqli o'rinni egallaydi. O'zbek xalqi yaratgan dostonlarda xalq hayoti, urf-odatlari, xarakteri, milliy mustaqillik uchun olib borgan kurashi, g'alabaga ishonchi aks ettirilgan.

O'tmishda har bir shaxs urf-odatlar orqali jamoa bilan uzviy bog'langan, jamoaning ijtimoiy vazifalari, axloqiy qonun-qoidalari, orzularini o'rgangan va anglagan. Shu ma'noda qadriyat va ananalar kishining hissiyoti, xatti-harakatini ijobjiy ko'rinishidir. urf-odat va an'analar har bir insonning hissiyoti, xatti-harakatiga kuchli ta'sir qiluvchi ijobjiy hodisadir. Odamlarning o'z ijtimoiy burchini anglashi, shaxs sifatida shakllanishiga ham ijobjiy ta'sir qiladi, ularning hayot kechirish, tinchlik uchun kurashish yo'l-yo'riqlarini bilib olishlariga yordam beradi.

Urf-odat o'zida oilaviy turmush munosabatlari va axloq qoidalari namoyon etadi. Masalan, xotin-qizlar bilan munosabatda bo'lish tartiblari, ular bilan salomlashish qoidalari, keksalarga ko'rsatilgan hurmat-ehtirom, mehmondorchilik, dafn marosimlariga borish, undan qaytish tartiblari kabilar, avloddan-avlodga meros sifatida o'tib kelayotgan Navro'z, Mehrjon, Hosil bayramlari shular jumlasidandir.

O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida milliy xususiyati, yashash joyi, urf-odatlari, an'analar, dunyoqarashi, ruhiyat va orzulari mujassamlashgan iqtisodiy va ma'naviy

madaniyatini yaratdi. U yaratgan madaniy boyliklar, yodgorliklar, yoshlari tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Urf-odatlar va milliy marosimlarning milliyligi baynalminallik bilan uzviy bog'liqidir. Har bir xalqning madaniy an'analari o'z milliyligini saqlagan holda boshqa xalqlar an'analari bilan aloqada boyib boradi.[175] Har bir xalq o'z tarixi davomida boshqa xalqlardan u yoki bu an'analarni o'zlashtiradi. Masalan, o'zbek xalqi bilan tojik, turkman, qozoq xalqlarining o'yini, qo'shig'i, musiqasi, libosi, to'y marosimlari, mehmon kuzatish va kutish kabi urf-odatlarida o'xshashlik borki, bu ushbu xalqlarning o'zaro yaqinlik, totuvlikda yashab kelganliklarining oqibatidir.

Xalq pedagogikasida axloq tarbiyasi alohida o'rinni egallaydi. Har bir xalq, elat, jumladan, o'zbek xalqi o'ziga xos axloq qonun-qoidalalarini yaratdi, insoniylik ideali axloq qonuniyatlarining assosi hisoblanadi. Qadimdan insoniylik, yosh avlodni go'zal ahloqli, g'ururli qilib tarbiyalashga harakat qilingan. O'zbek xalqining boy ma'naviy merosi "Avesto"da o'z ifodasini topgan. "Avesto"da aytishlaricha, tabiat, jamiyat inson uchun yaratilgan moddiy-ma'naviy ne'mat sifatida talqin etilib, uni asrab-avaylashga da'vat etish qadimgi ma'naviy merosimizniig buyuk insonparvarlik namunasi ekanligini ko'rsatadi. Belgiyalik avestoshunos olim Jak Dyushen Giyyoman "Avesto" asarining ma'naviy qiymatini belgilab shunday degan edi: "Sharq o'g'lонлари орасидан G'arb birinchi bo'lib Zardushtni o'g'il qilib oldi. Uning ta'limoti lyso Masih ta'limotidan to'rt asr avval Yunonistonni boyitdi. Zardushtni Aflatun bilgan. Buddha va Konfutsiyarning ovozi Ovropaga yetib kelguncha juda ko'p vaqt kerak bo'ldi, shuning uchun asrlar davomida G'arb qadimiy Sharq donishmandligi bilan faqat Zardusht orqali tanish bo'lgandi...".

O'zbek millati ma'naviyatining va tarixining asosi hisoblanmish bu noyob durdon - xalqimizning g'ururi, milliy iftixoridir. Ushbu durdonani o'qir ekanmiz, unda hozirgi xalqimizda mavjud bo'lgan urf-odat, an'analarmiz bilan uyg'unlik sezamiz.

"Avesto"da ekin maydonlarini ko'paytirish, shudgor qilish, asrab-avaylash, uni muqaddas hisoblab sajda qilish ilohiy nizom tusini olgan. Olovga sig'inish, yer va olov xudosi Mitraga, yaylov xudosi Romanoga ibodat qilish, uy-joy qurish, uni uy hayvonlari, xotin va bola-chaqa bilan to'ldirish, o'simlik va daraxt ko'kartirish, katta-kichik uy hayvonlarini ko'paytirish, yerni parvarish qilish zardushtiylik dinining asosini tashkil etgan.

"Ey,Olamni yaratgan Zot!

Ey,haqiqat!

Zamini hammadan ko'ra baxtliroq bo'lgan dunyodagi ikkinchi joy qayer?

Ahura Mazda javob berdi:

Bunday joy bir Ashavan uy tiklagan makondir. O'sha uyda mubad ro'zg'or tebratadi. Sigirlar galasi va uy bekasi, farzandlar va suruvtar yashaydi. Sigirlar galasi yaxshi parvarish qilinadi. ... Tevalar xo'roki farovon, yaxshi itlarning rizqi serob. Uy bekasi baxtiyor. Farzandlar shodmon. Hamisha olov gurillab turadi. Tiriklikning go'zal har bir hodisasi yaxshilikka qovushadi ("Vandidod", 3-fargard, 2-3-bandlar).

Millatimizga ota-bobolardan meros bo'lib kelayotgan soch va tirnoqlarga bo'lgan pokiza munosabat ham Ahura Mazdaga yoqadigan xususiyat sanalgan. Bu narsa hozirgi zamon kishilarida ham uchrab turadi: sartaroshxonalarda soch tolalari tezgina yig'ib olinadi, tirnoqlar har qanday joyga tashlanmaydi, bolaning tishi tushsa uni "suyak tishingni ol, temir tishimni ber", deb tomga otib yuborish odatlarimiz bor.

O'zbekistonimizda kelin-kuyovni olov atrofida aylantirgandan keyin chimildiqla olib kirish, qabr ustiga sham yoqish, tut va sadalar shoxiga turli lattalar bog'lash singari urf-odatlar saqlanib qolgan-ki, bularning barchasini "Avesto"da o'qlymiz. Qadimgi udumlardan yana biri qurbanlik uchun so'yilgan jonliq kallasini qariyalar oldiga qo'yish, go'shtni xomtalash qilish, qo'ni-qo'shnilarga, beva-bechoralarga tarqatish hozirgacha saqlanib qolgan.

Ahura Mazdaga ergashgan odamlar ifloslik va kasallik, chang va zang, xiyonat va isqirtlik, chirk va churuk, so'ligan va qurigan narsalarga qarshi kurashishgan. Bu jarayonda suvg'a alohida e'tibor

berilgan. Ko'l, quduq va buloqlarga har qanday nopok narsalar tashlanmagan. Olovga toza, quruq o'tin tashlangan, axlat yoqish man qilingan. "Pokiza suv va yonib turgan olov qarshisida gustohlik qilgan zotning do'zahda topgusi jazosi bu dunyoning jamiki darduozorlaridan mudhishdir" ("Vandidod". 4-fargard, 54-band, 22-bet).[54] Oliy ta'lif muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish uzoq davom etadigan jarayon. Xalq o'gitlari, pand-nasihatlari, milliy qadriyatlar, milliy an'analar, sarkarda, mashhur alloma, san'atkor faoliyatiga doir namunalarni talabalar bilan muzokara qilish o'z natijasini ko'rsatadi. Milliy qadriyatlarimizning serma'no, serhikmat g'oyalarini o'zida jo qilgan va targ'ib-tashviq qiladigan xalq ertaklari, dostonlari, maqollari, matallari, rivoyatlari, kuy va qo'shiqlariga e'tiborni kuchaytirish, ularni sinchiklab o'rganish samara beradi.

Milliy-ma'naviy merosning tarkibiy qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodiyoti yosh avlodning el-yurtga, ona zaminga cheksiz mehrini oshirishda, milliy g'ururini o'stirishda shak-shubhasiz muhim tarbiyaviy positadir. Xalq ijodi namunalarida ajdodlarimizning milliy iftixor tuyg'usini yoshlar ongiga singdirishga oid tarixiy tajribasi yorqin aks etib turadi. Fol'klor asarlari yoshlar o'tasida axloqiy tarbiya sifatini oshirishga, kelajak avlodni ma'naviy barkamol kilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Suni hisobga olib, milliy madaniyatimizning eng qadimiy va hayotbaxsh an'analarini o'zida mujassam etgan og'zaki badiiy ijod durdonalaridan oliy ta'lif muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda badiiy estetik va ruhiy-iijtimoiy quvvat manbai sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fol'kloring kattayu-kichik hajmdagi barcha janlarida xalqimizning ajdodlarimiz shonli tarixiga, milliy an'analariga, betakror urf-odatlariga, axloqiy o'gitlariga hurmati va sadoqati o'z badiiy ifodasini topgan bo'lib, shu orqali kelajak avlod ajdodlarga munosib voris bo'lib yashashga intilishi, ular kabi millat ravnaqi, elu yurt manfaati, tinchligi va osoyishtaligi, or-nomus, sharmu hayo uchun kurashishi, milliy qadriyatlarimizni ardoqlashi lozimligi uqtiriladi.

Xalqimizning bilimi, hayotiy tajribalari, madaniyati, san'ati, axloqiy qarashlari, shonli tarixi, yuksak orzu intilishlari, eng

qimmatli milliy an'analarini singgan fol'klor namunalarini o'rganish orqali yoshlar qalbida millatimizga xos g'urur, bag'rikenglik, mehnatda fidoyilik, vatanga sadoqatilik, do'st-yorga vafodorlik, shijoatlilik, halollik, mehr-oqibatlilik, or-nomuslilik, bir so'zlilik, andishalilik kabi xususiyatlarni singdirish orqali ularda milliy iftixor tuygusini shakllantirish muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. Ayniqsa, xalq dostonlari, afsona va rivoyatlarda, ertak va qo'shiqlarda o'z ifodasini topgan millat tarixiga oid turli voqealar, xalq qahramonlarining elu yurt ravnaqi va mustaqilligi uchun ko'rsatgan jasoratlari tasviri hamda ajdodlarimizning ma'naviy fazilatlar haqidagi qarashlarining talqini yoshlarning milliy g'ururi, faxr va iftixor tuyg'usi shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Milliy iftixor tuyg'usi maqollarda ham o'ziga xos tarzda aks ettirilgan. O'zbek xalqining xarakter-xususiyati, tabiatи haqida yaratilgan maqollar bir talay bo'lib, ularda o'zbek millatiga mansub kishilarning qat'iyatlari, bir so'zli, mard va jasur, o'z ishiga puxta, sobitqadam va bunyodkor o'zaro mehr-oqibatlari, oriyatli, bag'rikeng va mehmondo'st bo'lishi badiiy ifoda etilganligi kuzatiladi. Masalan:

O'zbek o'z bilganidan qolmas.

O'zbekning o'pgani-tuyaning tegpani.

O'lgan o'zbekning qo'ynda noni bo'lar.

O'zbekka salom berdim,

O'n tanga tovon berdim. [66] Millatimiz fe'l-atvorini anglatuvchi bu maqollar ajdodlarimizning shu xalq farzandi bo'lganligidan faxrlanish tuyg'usi bilan yaratilganligi sezilib turibdi. Tabiiyki, bunday maqollar yoshlarni ham o'zbek bo'lganligidan faxrlanishga, o'z millati va tabiatи bilan g'ururlanishga undaydi. Natijada ular qalbida o'z millatiga sodiq bo'lish tuyg'usi uyg'onadi.

Yosh avlod nechog'lik o'z elu yurti, millati tarixi bilan faxrlansa, shuncha uning qalbida vatanparvarlik tuyg'usi mustahkam qaror topadi. Eli va yurti manfaatini o'laydigan, uning ozodligi va mustaqilligi yuksak ravnaqi uchun kurashadigan bo'lib ulg'ayadi.

Yoshlarga milliy mustaqillikning nechog'lik muhimligini anglatishda Alp Er To'nga, Shiroq, To'maris, Alpomish, Muqanna, Namoz botir kabi ko'plab xalq qahramonlarining Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lidagi jasoratlari haqida yaratilgan epik asarlar muhim ahamiyatga ega. Ular orqali yoshlar vatanini ardoqlagan kishini elu yurt mangu ardoqlashni bilib oladilar. Bunday qahramon ota-bobolari bilan faxrlanib, ular qo'riqlab, himoya qilib, kerak bo'lsa shirin jonidan kechib, asrab qolgan ona zaminni o'zlar ko'z qorachig'iday asrab, turli dushmanlardan himoya qilishlari lozimligini anglab yetadilar. E'tiborli jihat shundaki, xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib kelingan fol'klor asarlarning mazmun-mohiyati, ularda ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy va ta'limiy qarashlar, hayotiy tajribalar tavsiyi yangi, demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi istiqlol davri g'oyalari bilan ham mos keladi.

O'zbek xalq dostonlarida milliy iftixor va g'urur tuyg'usini o'zida ifoda etuvchi badiiy satrlar juda ko'p uchraydi. Ayniqsa, bu jihatdan "Alpomish" dostoni alohida ajralib turadi. Unda o'zbek xalq qahramoni Alpomish hamda uning go'zal va iqbol, jasoratlari va sadoqatli yori Barchinoarning xatti-harakatlari, fe'l atvori asosida millatimiz ruhiyatiga xos xarakter-xususiyatlar, fazilatlar ko'rsatib berilgan.

Alpomish qayerda bo'lmasin, hamisha ko'nglida:
O'ynab-kulib yana elga kelayin,
O'z yurtimga kelib davron surayin,
To'ra bo'lib o'z yurtimni so'rayman,
Siyosatman elu xalqqa qarayman,[179]
deya yaxshi niyat qiladi.

Alpomishning o'z elu yurtiga, suyukli yoriga bu qadar sadoqatligi, fidoiyligini yaxshi bilgan yaqin do'sti Qorajon unga dushmanlik qilmoqchi bo'lgan o'z akalarini falokatli yo'ldan qaytarishga urinib, ularni ogohlantirgancha shunday deydi:

Sen tilingni tortib suyla, bu zamon,
O'zbak mugum armon bilan ulasan.
Bu o'zbekni alp qorajon biladi.
Changallasa, tog'ni talqon qiladi.
Achchig'lansa mulking yakson bo'ladi

Kim bunga teginsa tayin o'ladi.[179]

Darhaqiqat, qalbidan, elu-yurtini, sevgan yoriga cheksiz mehr-muhabbati to'lib-toshgan har bir inson uni dushmanlardan himoya qilishi uchun bor kuch g'ayratini ishga soladi. Ayniqsa, bunda o'zbek yigitlarining niroyatda orli bo'lishi, kurashlarda polvonlarcha olishishining shuhrati olamga yoyilgani sir emas.

Millatimiz tarixi bilan bog'liq hayotiy tajribalaridan ma'lumki, yurtimiz tuprog'iga behayolarcha bostirib kelgan har qanday dushman ertami kechmi yengilmay qolmagan. Shuning uchun bu haqiqat xalq og'zaki asarlarida alohida tarannum etiladi.

Kelsa agar och bo'ri,
Tayyordir uning go'ri
Bizning kuchga teng kelmas,

Dushmanning hamma turi,[66] - deya kuyylanadi o'zbek xalq qo'shiqlarida. Bu bilan o'zbek millatining azaldan tengsiz kuch qudratiga ega bo'lganligi, yengilmasligi, oriyatligi ma'lum qilinadi. Xalqimiz orasida or-nomus, sha'n himoyasi uchun kurashish ustun. Ayniqsa, elu-yurtning, xotin-qizlarning or-nomusi, sha'ni uchun kurashish o'zbek yigitlarning qoniga singib ketgan, bobomeros tushunchadir.

Xalq asarlarida yaratilgan xotin-qizlar obrazi ham hozirgi o'zbek qizlari uchun har tomonlama o'rnak bo'larli fazilatlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi. Avvalo, ular o'z or-nomusi va sha'n uchun mardlarcha kurashishi, jasurligi, vafodorligi, odobli va ibo hayoligi bilan ajralib turadi. Uzun sochli, qalam qoshli, betakror husni malohatli o'zbek qizlarining go'zallik barobarida tengsiz aql-idrokka, kuch-g'ayratga ega bo'lganligi. Ularning mag'rur va shijoatligi, iffatli va andishaligi xalq og'zaki ijodida Barchinoy, Oysuluv, Oychinor, Xurshidoy, To'lg'anoy kabi qator epik qahramonlar timsolida ko'rsatib berilgan.

"Farhod va Shirin", "Tohir va Zuhra", "Layli va Majnun" kabi qator xalq asarlarida insonning insonga samimiy va pok muhabbatni, yoshlarning bir-birini chin yurakdan qadrlashi ulug'lanadiki, ular orqali ayni sevish va sevilish yoshidagi qiz-yigitlar o'z ajdodlari kabi chin sevgini ardoqlash, sof muhabbatga erishib, unga vafo qilishga o'rganadilar.

Azaldan O'zbekiston - jannatmakon yurt. Uning baxmal vodiylari, osmono'par tog'lari va bu tog'lari bag'rida yashirinib yotgan bitmas-tuganmas ma'daniy boyliklari, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan osori-atiqalar, tarixiy obidalar, sersuv daryo-yu ko'llar, sersharbat bog'u rog'lar, oltinga teng tuprog'u musaffo toza havosi butun dunyoni lol qoldiradi. Shuning uchun har yili o'lkamizga minglab sayyoohlар tashrif buyurib, hordiq chiqarib ketishadi. Xalq qo'shiqlarida xuddi shu holatdan faxrlanish quyidagicha badiiy talqin qilingan:

Ro'molimiz uchirdi.

Baxmal vodiylar shamoli.

Kimlarga zavq bermaydi,

Bizning ellar jamoli.^[66] Ko'pgina fol'klor asarlarida o'zbekning oti, uning chavandozligi, o'zbek chorvadorlarning muvaffaqiyatlari tarannum etiladi.

Qimmat baho ekan o'zbekning oti,

Qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti.

Asl tulpor ekan o'zbekning oti.^[179]

Tarixiy ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi otlarning asl zotlari, uchqur va chidamli otlar aynan Turon zaminida tarbiyalab yetishtirilgan. Ayniqsa, o'zbek otlarining dovrug'i yuksak bo'lib, ular juda qimmat baholangan. Shuning uchun fol'klor asarlarida o'zbek otboqarlarining bu muvaffaqiyati alohida ta'kidlab keligan.

Xalqimiz o'z mehnatkashligi va buniyodkorligi bilan dong taratib kelgan. Shu sababli mehnat va mehnatsevar mavzui fol'klor asarlarida alohida tarannum etiladi. Ajdodlarimizning hamisha halol mehnat evaziga kun kechirib kelganligi, tekinxo'rliqi va bosqinchilikdan xazar qilganligi, to'g'riso'zlik va adolatni yoqlaganligi ta'kidlanadi. Natijada, bunday asarlarni o'rganayotgan yoshlar ham mehnatdan qochmaslikka, halol mehnat evaziga kun kechirishga intiladilar. O'z ota-bobolari, momolari izidan borib, ular boshlagan hunarlarni davom ettirib, buniyodkorlik ishlarni amalga oshirishga harakat qiladilar.

Fol'klor asarlarida xalqimizning diniy e'tiqodi alohida qadrlanadi. Madaniyatimiz tarixiga munosib hissa qo'shgan Imom Ismoil al-Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Balogardon, Najmiddin Kubro kabi tabarruk zotlar haqida yaratilgan diniy-

tarixiy asarlar yosh avlodini buyuk ajdodlarimiz ruhi oldida sajda qilishga, ularga munosib voris bo'lishga da'vat etadi.

Xullas, o'lkamizda yaratilgan beba ho ma'naviy kadriyatlar tizimining ajralmas bir qismi hisoblangan fol'klor namunalari ajdodlarimizning shonli tarixi bilan yosh avlodni tanishtirishi bilan bir qatorda ularni yuksak buniyodkorliklar sari undaydi.

Fol'klor asarlarida xalqimizning uzoq o'tmis tarixi, bugungi turmush tarzi real aks ettiriladi, bu hozirgi yoshlarga mavjud turmushimizga xos qulayliklar bilan o'tmis voqealarini taqqoslab, shu asosida yangicha yashashning afzalligini tushunib yetishlariga imkon yaratadi. Shu orqali yoshlar hozirgi baxtli va farovon hayotimizning qadriga yetishni o'rganadilar.

Allasini tinglab ulg'aygan, yor-yor bilan o'z sevgilisi visoliga erishgan, xalq dostonlari va ertaklarini eshitib voyaga yetgan yigit-qizlar Alpomishday mard, Qorajonday tanti, Barchinday iboli va vafoli bo'lishlariga sira shubha yo'q.

Umuman aytganda, ajdodlarning vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sadoqatlilik, halollik, rostguylik, adolatlilik tuyg'usi bilan sug'orilgan fol'klor asarları hozirgi yoshlarga har tomonlama o'rnak bo'la oladi. Har bir yosh avlod shu zaminning, buyuk ajdodlarning vorisi ekanligidan g'ururlanib, milliy iftixon tuyg'usi bilan yashasa arziyi.

2.3-§. Talabalarda milliy iftixon tuyg'usini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari

Tadqiqotning birinchi bobida mavjud ahvolni o'rganish natijasida yoshlar, jumladan, oliy ta'lim muassasalari talabalarining aksariyati o'zlarida milliy iftixon tuyg'usining shakkantirishda klaster modelidan foydalanshga nisbatan befarq ekanliklari va ularda bu sifat past darajada rivojlanganligi aytib o'tildi. Tajriba-sinov ishlari chog'ida bu holatning mavjudlik sababi o'rganildi. Talabalar faoliyatini bevosita kuzatish, ular bilan o'tkazilgan suhbatlar, bahs-munozaralar, so'rovlar natijalari sabablarni aniqlashga yordam berdi.

Nazariy tahlil va oliy ta'lim muassasalari amaliyotini dastlabki o'rganish talabalarda milliy iftixon tuyg'usini

rivojlantirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi:

1. Gumanitar fanlar imkoniyatlari bilan ularni o'qitish jarayonida talabalarga milliy qadriyatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati, o'zbek xalqining jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga qo'shan hissasi haqidagi ma'lumotlarni berishga jiddiy e'tibor qaratilmayotganligi; Bu maqsadda fanlararo o'zaro aloqadorlik, integratsiyadan foydalanish kutilgan natijalarni bera oladi.

2. Oliy ta'lif muassasalarining umumuniversitet (umuminstitut), fakul'tet hamda guruh ma'naviyat ishlari bo'yicha ishlab chiqilgan tarbiyaviy tadbirlar rejasida so'z yuritilayotgan muammoga oid tadbirlarning izchil, uzluksiz tashkil etilmayotganligi, rejaning to'la bajarilmayotganligi, talabalarni tarbiyaviy amliyot jarayonida tadbirlar yetakchi o'rinn tutadi.

Kuzatishlar oliy o'quv yurtlarini ma'naviyat ishlarini rejalashtirish, milliy o'zlikni anglash, milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tadbirlarni o'tqazishga juda katta e'tibor qaratiladi. Tadbirlarni o'tkazishda befarqliq, uni reja uchungina o'tkazish majburiyati ko'zga tashlanmoqda. Pedagogika fani g'oyalariga ko'ra tadbirlarning bunday ruhda o'tkazilishi ularning hech qanday ta'sir kuchiga ega bo'lmasligi uchungina sharoit yaratadi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanishga oid ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda respublikada faoliyat olib borayotgan ijtimoiy tashkilotlar, jumladan, Respublika "Ma'naviyat markazi," "Oltin meros," "Bobur", "Ahmad Farg'oniy", "Qatog'on qurbanlari" kabi jamg'armalar, shuningdek, Respublika "Yoshlar ittifoqi" ijtimoiy harakati va ularning joylardagi bo'limlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqli.

3. Ommaviy axborot vositalarining kuchli tarbiyaviy imkoniyatlarining to'la ochilmayotganligi, yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishdagi ular rolining talablar darajasida bo'lmayotganligi.

Bugungi kunda garchi ommaviy axborot vositalari soni keskin oshgan bo'lsada, aksariyat vositalarning yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, ularni barkamol inson qilib

tarbiyalashdagi roli mutlaqo ko'zga tashlanmayapti. Yoki aksincha, ularning sahifalarida berib borilayotgan tor maishiy hayot etyudlari, «armonli muhabbat» egalarining ohu-nolalari, yengil-elpi hayat kechiruvchilarning ta'sirsiz "pushaymonlari", ma'naviy-axloqiy g'oyaga ega bo'limgan yoki u yetarli darajada badiiy ifodasini topmagan adog'i yo'q seriallar, ustuvor o'rinn tutgan kriminal olam "yangiliklari" va ishlamasdan boyib ketishni istagan yoshlar juda katta vadalarini yorituvchi materiallar ortib borishi yoshlarni, hususan talabalar ongini passivlashtirib saviyasini tushirmoqda.

Aksincha, axborot vositalarini va ma'naviyatni targ'ib etuvchi, talabalar o'rtasida vatanni sevish, milliy ongni o'sishi, yuksak insoniy sifatlarni qaror topishi ma'naviy madaniyatni yuksaltiradi. So'nggi yillarda O'zbekiston teleradio kompaniyasi tomonidan xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, "Oltin meros", "Ohangrabob", "Bellashuv" ("Aytishuv"), "Siz sog'ingan ohanglar", "Bir o'lkaki", shuningdek, "Ziyo" studiyasi tomonidan tayyorlanayotgan ko'rsatuv va eshittirishlardan oliy ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda foydalanish maqsadga muvofiqli. Ular sonining ko'paytirilishi ham kutilgan natijalarni beradi.

4. Yoshlar ongiga kuchli ta'sir etuvchi musiqa va kino san'atining tarbiyaviy imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanishga e'tibor bermaslik, zamonaviy musiqa madniyatini va san'ati namunalarining aksariyati bugungi kun talablarini to'la qondira olmayotganligi.

Milliy musiqaning boy merosi, unga tamal toshi qo'yan san'atkorlar bilan talabalarni tanishtirish ham oliy ta'lif muassasalarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning asosiy yo'nalishlaridan bo'lib qolishi zarur. Bu esa o'z navbatida matn va ohangda mantiq va ijro mahorati sezilmaydigan, aslida iqtidorga ega bo'lmasa-da, sun'iy ravishda "yulduzlar"ga aylantirilayotgan san'atkorlar ijodi yo'liga jamoatchilik ta'siri ostida to'siq qo'yish imkonini beradi. Binobarin, shaxsiy manfaat yo'lida o'zining boy an'analariga ega bo'lgan milliy musiqani obro'sizlantirish uchun hech qim ma'naviy huquqqa ega emas.

Keyingi vaqtarda efirga olinayotgan ayrim filmlarda badiiylik va ijro mahoratini yetishmasligi, milliy madaniy merosni saviyasini tushishga olib kelmoqda. Shu sababli talabalar o'rtasida asl san'at namunalari bo'lgan kinofil'mlarni targ'ib etish, ular haqida ma'lumotlar berish, jamoa asosida ularni tomosha qilib, yoritilgan g'oya va uning yechimi to'g'risidagi suhbatlarni uyuştirish zarur. Bu o'rinda "Tohir va Zuhra", "Nasriddin Buxoroda", "Alisher Navoiy", "Amir Temur" fil'mlari imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish maqsadga muvofiq.

5. Yoshlarning turli sohalarda jasorat, qahramonlik hamda yuksak iroda namunasini ko'rsatayotgan shaxslarning hayot tarzi, hatti-harakatlari, faoliyati bilan yetarlicha tanishtirilmayotganligi, ishlab chiqarish va ijod sohalarida samarali faoliyat yuritayotgan bugungi kun qahramonlarini yoshlarga tanishtirishda yetarli darajada faollik ko'rsatilmayotganligi.

Bu o'rinda ijtimoiy-gumanitar fanlar, shuningdek, ijtimoiy, davlat va nodavlat tashkilotlarning ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanish asosida talabalarni xalq hamda bugungi kun qahramonlari bilan tanishtirishga jiddiy e'tibor qaratishni davr taqozo etmoqda.

Tadbirlar chog'ida Shiroq, To'maris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Qurbonjon Dodho, Dukchi Eshon, Madaminbek, Sobir Rahimov, Mamadali Topiboldiyev, Ahmadjon Shukurov, To'ychi Eryigitov, shuningdek, O'zbekiston Qahramonlari – Said Ahmad, Ozod Sharofutdinov, Abdulla Oripov, Ulug'bek Umarov, Martiya Raxmatova, Mavlyuda Ismatova, Erkin Vohidovlarning hayoti va faoliyati bilan talabalarni yaqindan tanishtirib borish ular uchun alohida tarbiya namunasi bo'lib xizmat qiladi. Ana shu maqsaddagi tadbirlarning uchrashuvlar shaklida bo'lismiga erishish esa yanada samaralidir.

Ojalarda farzandlar tarbiyasini tashkil etishda milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ta'siridan foydalanish masalasiga e'tibor qaratishga erishish zarur. Bu o'rinda uzlusiz ta'lim muassasalari, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalari tomonidan oilalarga metodik yordam ko'rsatilishiga erishish lozim.

6. Yoshlarning vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi tadbirlarda faol ishtirok etishga bo'lgan

qiziqishlari darajasining pastligi, vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi tadbirlarni tashkil etish an'anasing tobora unutilib borayotganligi.

Oliy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish borasidagi sinovdan o'tgan an'ananing qayta tiklanishi talabalarda milliy iftixor, harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini muvaffaqiyatli tarbiyalashga yordam beradi.

7. Davlat siyosati darajasida yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy harakatning amalga oshirilayotganligiga qaramay ular e'tiborini milliy muammolardan chetga tortish evaziga ularning ongiga yagona islomiy maqsad – xalifalik davlatini barpo etish va jamiyatni diniy tamoyillar asosida boshqarish "oliy burch ekanligi" to'g'risidagi g'oyalarni singdirishga yo'naltirilgan "axborot xuruji"ning olib borilayotganligi, bu xavf sur'atining tobora tezlashayotganligi.

Yoshlar, shuningdek, talabalarni buzg'unchi g'oyalarni ta'siridan saqlab qolishning eng ishonchli usuli – ularni ijtimoiy-foydali mehnat bilan band qilish, ularga Islom ta'limotining asl qarashlari to'g'risidagi bilimlarni targ'ib etish hisoblanadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida talabalarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli, jamoa asosida tashkil etish, ularni islomiy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqlir. Talabalar shanbaliklarini tashkil etish, yoshlardan iborat ko'ngillilar guruholarining ta'il vaqtlarida ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish ularni buzg'unchi g'oyalarga berilmasliklarining oldini olishda kutilgan natijalarni beradi. Ana shu maqsadda oliy ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish korxonalarini bilan integratsiyaga, hamkorlikka erishish foydadan holi emas.

8. Xorijiy davlatlar va Respublikamizda talabalarning (umuman yoshlarda) milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish asosida to'plangan tajribalar pedagogik faoliyatda fikrlarning ilmiy anjumanlarda aytishiga qaramasdan bu yo'lda hali ham sustkshliklar kuzatilmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlar, jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yoshlarda milliy iftixor va milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish borasida katta pedagogik

tajribaga ega. Ana shunday tajribalardan biri yoshlar bolalikdan milliy-madaniy meros, mamlakat tarixi bilan tanishtirilib boriladi. Ta'lim muassasalaridan ta'lim oluvchilarda kunning ikkinchi yarmida milliy urf-odatlar, marosim va an'analarni tashkil etish, ularni o'tkazishga oid ko'nikma va malakalar amaliy mashqlar, mashg'ulotlar asosida shakllantirib boriladi. Bu kabi tajribalarni respublika uzluksiz ta'lim tizimiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

9. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayonida klaster modelini foydalanish pedagogik-psixologik va tarixiy jihatlari yaxlit tizim asosida o'rganilishi yuzaga kelsada, bugungi kung qadar bu muammolar o'z yechimini topmagan. Bu esa mavjud holatni yanada keskinlashtirdi.

Masalaning bu jihatini o'rganish yo'lida dastlabki harakatlar boshlangan, endigi vazifa bu harakatning samarali chora-tadbirlarini belgilashdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarida milliy-madaniy meros namunalari haqidagi bilimlarni targ'ib etish uchrashuv, davra suhbat, ko'r gazma, havaskorlik chiqishlari, ilmiy taqdimot va ekskursiyalar shaklida tashkil etilishi mumkin.

Ta'limda xox auditoriyada, yokim ta'lim muassasalaridan tashqarida uyushtiriladigan tadbirlarda bo'lsin, birinchi e'tibor milliy merosni va san'atni sha'nini yuksak o'ringa olib chiqish va jaxonda keng targ'ib etish masalalari muhim hisoblanmoqda. Xalqaro tanlovlarda tan olingen durdonalari bilan talabalarni tanishtirish zarur.

